8	Ona tilida tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo'llanish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual	6-hafta	2

	o‘rinlari.	topshiriqlarni bajarish.		
9	Nutq uslublari haqida ma’lumot. Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va grammatik uslubiyat haqida.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	7-hafta	2
	Jami			28

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

“Ona tili va adabiyoti” fani bo‘yicha ta’lim berish jarayonida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan, shu paytgacha tajribali pedagoglar tomonidan to‘plangan ilg‘or metod va usullardan, shuningdek, texnika taraqqiyotining imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanish tavsiya etiladi.

“Ona tili va adabiyoti” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezon.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarining bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

Joriy nazorat (JN)-talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va bahoalash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish, mashqlar bajarish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat (ON)-semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat (YN)- semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-40 ball va ON-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100	Xulosa qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil fikrlaydi, amalda qo'llay oladi, moshiyatini tushunadi, yorqin aytib beradi, tassavurga ega.
71-85	Mustaqil fikrlaydi, amalda qillaydi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
55-70	Mohiyatini tushunadi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
0-54	Aniq tassavurga ega emas, bilmaydi, aytib bera olmaydi.

* Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

* Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

*Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $100 = V \cdot X \cdot O = R$. Bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

*Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

*Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

* Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

*ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

* JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

*Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

*Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra

rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

*Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

*Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi. Yozma ish, test natijalari bo'yicha	30	15	15
Jami ON ballari		30	15	15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati.	30	15	15
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10		10
Jami JN ballari		40	15	15

Talabalar YaN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

№	Ko'rsatkichlar	YN ballari	
		Maks	O'tish bali
	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati.	30	17
Jami YN ballari		30	17

--	--	--

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari.

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov koʻp variantli usulda oʻtkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan boʻyicha tayanch soʻz va iboralar asosida tuzilgan boʻlib, fanning barcha mavzularini oʻz ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar boʻyicha oʻzlashtirish koʻrsatkichi 0-10 ball oraligʻida baholanadi.

Yozma sinov boʻyicha umumiy oʻzlashtirish koʻrsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qoʻyilgan oʻzlashtirish ballari qoʻshiladi va yigʻindi talabaniing yakuniy nazorat boʻyicha oʻzlashtirish bali hisoblanadi.

“Ona tili va adabiyoti” fani boʻyicha tavsiya etilgan adabiyotlar roʻyxati.

Foydalaniladigan asosiy darslik va oʻquv qoʻllanmalar, elektron taʼlim resurslari hamda qoʻshimcha adabiyotlar roʻyxati

Rahbariyat adabiyotlari:

1. I.A.Karimov. Barkomol avlod - Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. -T.: Maʼnaviyat, 2008

Asosiy adabiyotlar:

- 1.M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.Gʻulomova, Sh.Yoʻldosheva. Ona tili. - Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar toʻplami. Toshkent: TDPU, 2009-yil. -240 bet.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

- 1.H.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – T.: Universitet, 2006.
- 3.R.Yunusov. Oʻzbek tilidan praktikum. 1-qism. – T.: TDPU, 2006.
- 4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.- Toshkent: Oʻzbekiston, 1992.
5. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010.

Elektron taʼlim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz

O'QUV MATERIALLAR

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

Mavzu: Qo'shma gap

Reja: 1. Qo'shma gap turlari haqida ma'lumot

Bog'langan qo'shma gap

Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Qo'shma gap turlari haqida ma'lumot

Qo'shma gaplar, qismlarining o'zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko'ra, uch xil bo'ladi: 1) bog'langan qo'shma gap; 2) ergashgan qo'shma gap; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap.

Qiyoslang: Iste'dod hamisha har xil bo'ladi, iste'dodsizlar esa hamma joyda bir xildir. (E.Vohidov) Shuni aytmoqchimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo'lishi shart. (F.Julio Kyuri).

Keltirilgan misollarning birinchisi bog'langan qo'shma gap bo'lib, uning qismlari **esa** yordamchisi vositasida o'zaro teng bog'langan; ikkinchisi ergashgan qo'shma gap bo'lib, uning qismlari **-ki** aniqlov bog'lovchisi orqali ikkinchi qismni birinchi qismga tobelik yo'li bilan bog'lagan; uchinchi gap bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lib, uning qismlari o'zaro hech qanday bog'lovchi vositasiz - faqat **ohang** orqali birikkan.

Bog'langan qo'shma gap

Qismlarining o'zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap **bog'langan qo'shma gap** deyiladi. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari (*va, hamda, ham*), zidlov bog'lovchilari (*ammo, lekin, biroq, balki*), ayiruv bog'lovchilari (*yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba'zan... ba'zan, hali... hali, bir... bir*), teng bog'lovchi vazifasidagi – *da, -u (-yu), na... na* yuklamalari, shuningdek, *bo'lsa, esa* yordamchilari vositasida bog'lanadi.

Shunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

4. Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

5. **Bo'lsa, esa** yordamchi so'zlari vositasida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Biriktiruv bog'lovchilari (*va, hamda*; ba'zan shu vazifadagi *ham* yuklamasi) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: *Haqiqat va to'g'rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech kim hokim bo'la olmaydi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur.) Keng bog'dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o'sa boshladi. (O'.Hoshimov.)*

Zidlov bog'lovchilari (*lekin, ammo, biroq, balki*) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid bo'ladi. Masalan: *Har qanday narsada isrofchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bo'lmaydi. («Ajoyib nasihatlar»)* *Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga o'xshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar o'g'liday ajinsiz, quyuq qora sochli bo'lganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).*

Ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan...) **yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gapda** birini tanlash lozim bo'lgan yoki galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi.

a) *yo* (*yo...*, *yo*), *yo...*, *yo bo'lmasa*; *yoki* (*yoki...*, *yoki*); *yo...*, *yoki*; *xoh...*, *xoh bog'lovchilari* birini tanlash lozim bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: *Yo ko'k unga o'z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko'zgusi xiralashib qolgan.* (O.Yoqubov.)

b) *goh...*, *goh*; *dam...*, *dam*; *ba'zan...*, *ba'zan* bog'lovchilari galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni bog'laydi. Masalan, *Ba'zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyib yuboradi, ba'zan bulut oy yuzini qoplab oladi.* (Oybek.)

Teng bog'lovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar yoxud mazmunan zid bo'lgan voqea-hodisalar anglashilib turadi.

Bunda *-u*, (*-yu*), *-da*, *na...*, *na* yuklamalari biriktiruv bog'lovchilarining vazifasini, *-u* (*-yu*) yuklamasi zidlov bog'lovchilari vazifasini bajaradi. Masalan: *Oyko'l ilgari alohida xo'jalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi.* (P.Qodirov.) *Ikki tomondagi kitoblarga to'lib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qo'lyozma bor.* (O.Yoqubov.)

Bo'lsa, esa so'zlari vositasida tuzilgan bog'langan qo'shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: *Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari yordamida biriksa, shuningdek yakka qo'llanuvchi *yo*, *yoki*, *yoxud* ayiruv bog'lovchilari yordamida biriksa, ular orasiga vergul qo'yilmaydi. Masalan: *Shamol tag'in shu tomonga burildi va ingichka, qo'ng'iroqday ovoz jaranglab eshitildi.* (O'Hoshimov.)

2. Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchilari yordamida biriksa, bunday bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Qorong'ida buloq suvining o'zi ko'rinmas edi, ammo shildirashi aniq eshitar edi.* (P.Qodirov.)

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar **bo'lsa, esa** so'zlari vositasida biriksa ham, ular orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *Harakatchan kishilar odatda omadli bo'ladilar; aksincha qiladigan ishlarini hadeb o'ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan-kam nasib etadi.* (Gerodot.)

4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar takrorlanuvchi ayiruv bog'lovchilari yoki inkor yuklamasi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan yordamchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimog'iga urilardi, goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hasharotlarning bir qiyomda chirillashi e'tiborini tortardi...* (P.Qodirov.)

Blits-so'rov savollari:

1. Qo'shma gapning ta'rifini ayting.
2. Sodda va qo'shma gap o'rtasida qanday farq bor?
3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro qanday vositalar bilan bojlanadi?
4. Qo'shma gapning qanday turlari bor?
5. Bog'langan qo'shma gap ta'rifini ayting.
6. Bog'langan qo'shma gap turlarini sanang.
7. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
8. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
9. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
10. Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.

Mavzu: Bog‘langan qo‘shma gap -6 soat

Reja:

1. Bog‘langan qo‘shma gap
2. Bog‘langan qo‘shma gap turlari
3. Bog‘langan qo‘shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Qismlarining o‘zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bog‘langan qo‘shma gap deyiladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog‘lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba‘zan... ba‘zan, hali... hali, bir... bir), teng bog‘lovchi vazifasidagi –da, -u (-yu), na... na yuklamalari, shuningdek, bo‘lsa, esa yordamchilari vositasida bog‘lanadi.

Shunga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
2. Zidlov bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
3. Ayiruv bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
4. Teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
5. Bo‘lsa, esa yordamchi so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

Biriktiruv bog‘lovchilari (va, hamda; ba‘zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: haqiqat va to‘g‘rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech Kim hokim bo‘la olmaydi. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.) Keng bog‘dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o‘sa boshladi. (O‘.Hoshimov.)

Zidlov bog‘lovchilari (lekin, ammo, biroq, balki) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid bo‘ladi. Masalan: *Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bo‘lmaydi.* («Ajoyib nasihatlar») *Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga o‘xshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar o‘g‘liday ajinsiz, quyuq qora sochli bo‘lganini tasavvur etish qiyin edi.* (P.Qodirov.)

Ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba‘zan..., ba‘zan...) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gapda birini tanlash lozim bo‘lgan yoki galma-gal ro‘y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi.

a) yo (yo..., yo), yo..., yo bo‘lmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh bog‘lovchilari birini tanlash lozim bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: *Yo ko‘k unga o‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko‘zgusi xiralashib qolgan.* (O.Yoqubov.)

b) goh..., goh; dam..., dam; ba‘zan..., ba‘zan bog‘lovchilari galma-gal ro‘y beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni bog‘laydi. Masalan, *Ba‘zan oy zarin kokillarini er yuziga yoyib yuboradi, ba‘zan bulut oy yuzini qoplab oladi.* (Oybek.)

Teng bog‘lovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar yohud mazmunan zid bo‘lgan voqea-hodisalar anglashilib turadi.

Bunda –u, (-yu), -da, na..., na yuklamalari biriktiruv bog‘lovchilarining vazifasini, -u (-yu) yuklamasi zidlov bog‘lovchilari vazifasini bajaradi. Masalan: *Oyko‘l ilgari alohida xo‘jalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi.* (P.Qodirov.) *Ikki tomondagi kitoblarga to‘lib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qo‘lyozma bor.* (O.Yoqubov.)

Bo‘lsa, esa so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: *Oliy*

himmatli kishi, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

Bog'langan qo'shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari yordamida biriksa, shuningdek yakka qo'llanuvchi yo, yoki, yohud ayiruv bog'lovchilari yordamida biriksa ular orasiga vergul qo'yilmaydi. Masalan: *SHamol tag'in shu tomonga burildi va ingichka, qo'ng'iroqday ovoz jaranglab eshitildi.* (O'.Hoshimov.)

2. Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchilari yordamida biriksa, bunday bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Qorong'ida buloq suvining o'zi ko'rinmas edi, ammo shildirashi aniq eshitar edi.* (P.Qodirov.)

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar bo'lsa, esa so'zlari vositasida biriksa ham, ular orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *Harakatchan kishilar odatda omadli bo'ladilar; aksincha qiladigan ishlarini hadeb o'ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan-kam nasib etadi.* (Gerodot.)

4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar takrorlanuvchi ayiruv bog'lovchilari yoki inkor yuklamasi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan yordamchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimog'iga urilardi, goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hasharotlarning bir qiyomda chirillashi e'tiborini tortardi...* (P.Qodirov.)

Blits-so'rov savollari:

1. Qo'shma gapning ta'rifini ayting.
2. Sodda va qo'shma gap o'rtasida qanday farq bor?
3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro qanday vositalar bilan bojlanadi?
4. Qo'shma gapning qanday turlari bor?
5. Bog'langan qo'shma gap ta'rifini ayting.
6. Bog'langan qo'shma gap turlarini sanang.
7. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
8. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
9. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
10. Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.

Mavzu: Ergashgan qo'shma gap-16 soat

Reja:

1. Ergashgan qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarning biri ikkinchisiga mazmunan, grammatik va ohang jihatdan tobe bo'lib, uni aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi. SHuning uchun ham qismlardan biri hokim, ikkinchisi tobe sanaladi. Bunda ergashgan qo'shma gap tarkibidagi hokim qism bosh gap, tobelanib kelgan qism esa ergash gap deb yuritiladi. Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash to'ldirish uchun xizmat qiladi. Masalan: «Gar kishi olmasa hayotdan ta'lim, Unga o'rgatolmas hech bir muallim.» (Ro'dakiy.) gapida «Unga o'rgatolmas hech bir

muallim» - bosh gap, «Gar kishi olmasa hayotdan ta'lim» - ergash gap. Ergash gap bosh gapni shart munosabatiga ko'ra izohlagan.

Ergashgan qo'shma gapda bosh gapning kesimi qo'shimcha to'liq shakllangan bo'ladi, lekin ergash gapning kesimi ko'p hollarda to'liq shakllanmaydi, shu tufayli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar, asosan, ergash gapning kesimi tarkibida keladi yoki undan so'ng qo'shiladi. Masalan, O'z darajangga munosib o'ringa bilib o'tirsang, bu o'rindan seni hech kim qo'zg'atolmaydi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur.) gapida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita (-sa) ergash gapning kesimi tarkibida kelgan.

2. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1.Ergashtiruvchi bog'lovchilar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, chunki, negaki, toki, go'yo, -ki) yordamida: shunday odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi. (H.G'ulom.) Nafas olmay quloq tutgan kishi muttasil shovullagan tovush eshitadi, go'yo olisda shivalab yomg'ir yog'ayotgandek. (S.Ahmad.)

2.Ko'makchilar (fe'l formalaridan so'ng kelgan ko'makchilar) yordamida: Toshtemir shaharga ketgandan keyin, Sodiq ota qiziga hech narsa demadi. (H.G'ulom.) Eshik ortiqcha tor bo'lgani uchun, ot siqilibgina o'tdi... (A.Qodiriy.)

3.YUklamalar yordamida: Osmonda bulutlar paydo bo'lganidanmi, dengiz motam tutayotgan ayolga o'xshardi. (O'.Umarbekov.)

4.Nisbiy so'zlar yordamida: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo'lsa, ba'zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

5.Sifatdosh shakli hamda kelishik affiksi yordamida: Ota-onalarimiz qarib qolganda, ularga mehr-muhabbat tuyg'ularimizni baxsh etmog'imiz lozim. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

6.Fe'lning ravishdosh shakli yordamida: Nasiba chiqib ketgach, Buvsora ona sekin kosaga nazar tashladi. (San'at Mahmudova) Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi. (CH.Aytmatov.)

7.Fe'lning shart mayli formasi yordamida: Diqqat bilan quloq solsangiz, uning bulbulga taqlid qilayotganini sezasiz. (H.G'ulom.) Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tashlab ketar. (Maqol.)

8.Fe'lning buyruq-istak mayli formasi yordamida: Ona ishdan qanday o'y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko'zlarni ko'riboq, ko'ngli yozilardi. (A.Muhtor.)

9.-day (-dek) o'xshatish ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha yordamida: To'yning bo'ldi-bo'ldisi qiziq tuyulganday, yangi ishning boshlanish arafasi qiziq bo'ladi.

Ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan: Da'vogar sust kelsa, qozi muttaham... (H.G'ulom.) Qo'rqqoq do'st dushmandan xavflidir, chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan. (L.N.Tolstoy.)

Ayrim hollarda ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin. Masalan: O‘zi..., bo‘g‘ oz soʻvliqlar qiynalmasin deya, ularni o‘z yurishiga qarab bamaylixtir haydab ketdi. (CH.Aytmatov.) Uning sovuq nafasi, eshik ochilarkan, o‘rmonlarning shovqini bilan oqib kirib, yigitni biroz xushyorlantirardi. (Oybek.)

3. Ergash gapning turlari

Ma’lumki, ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo‘lagini izohlash, aniqlash, to‘ldirish uchun xizmat qiladi. SHunga ko‘ra ergash gap ikki katta guruhga bo‘linadi: 1) bosh gapning biror qismi (bo‘lagi)ni izohlovchi ergash gaplar; 2) butun bir bosh gapni izohlovchi ergash gaplar. Masalan: Dunyoda shunday odamlar bo‘ladiki, ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o‘tgan yo‘llari biz uchun... yuksak namuna bo‘lib xizmat qiladi. (O.YOqubov.) Kechasi shudring tushmagan bo‘lsa ham, daraxt yaproqlari nam va muzdek edi. (O.YOqubov.)

Birinchi gap tarkibidagi ergash gap (ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o‘tgan yo‘llari biz uchun... yuksak namuna bo‘lib xizmat qiladi) bosh gapdagi aniqlovchi (shunday) ni izohlagan bo‘lsa, ikkinchi gap tarkibidagi (kechasi shudring tushmagan bo‘lsa ham) ergash gapni bosh gapni to‘siqsizlik munosabati orqali butun holda izohlagan.

Bosh gapning biror bo‘lagini izohlaydigan ergash gaplarga ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi ergash gaplar; bosh gapni butun holda izohlovchi ergash gaplarga payt, o‘rin, sabab, maqsad, shart, to‘siqsiz, ravish, miqdor-daraja, o‘xshatish, natija ergash gaplar kiradi.

Ega ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan ega bo‘lagini izohlab, kim? nima? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Ega ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.Ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo‘ladi. Bunda bosh gapning egasi u, o‘sha, o‘zi kabi olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Kimki birovning payini qirgsa, o‘ziniki ham qirqiladi. («Ajoyib nasihatlar».) Kimki o‘tmishni yaxshi bilsa, u hozirgi zamon qadriga etadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

2.Ergash gapning kesimi aniqlik maylida bo‘ladi. Masalan: Kim o‘zini hurmat qilar ekan, u boshqalarni ham hurmat qiladi.

3.Ega ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapga –ki aniqlov bog‘lovchisi orqali birikadi: SHu narsa ravshanki, o‘tmishni bilmasdan turib, hozirgi zamon qadriga etib bo‘lmaydi.

Ba‘zan ega ergash gap bosh gapdagi shakllanmagan egani izohlashi mumkin. Masalan: Bizga ayonki, xalq o‘z taqdirini o‘zi yaratadi.

Kesim ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan kesimini izohlaydi. Bunda bosh gapning kesimi vazifasida shu, shunday, shu bo‘ldi, shundan iborat so‘zlari kelib, ergash gap shu so‘zlarni izohlagani holda, bosh gapga –ki bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Farqi faqat shuki, men madaniy navlarni chatishtirardim... hatto geografik uzoq navlarning ham madaniysini tanlab chatishtirganman... (O‘.Usmonov.) Eng yomoni shundaki, u... odamlarni yil sayin o‘tkirroq dorilarni ishlatishga majbur qilyapti... (O‘.Usmonov.) Do‘stlikning qudrati shundan iboratki, bu qudratli kuch har qanday to‘siqni engaladi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini (yoki bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlaydi va bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi shart maylida bo'ladi. Masalan: Kimda gumon bo'lsa, uni ko'zdan qochirma gapi tarkibidagi ergash gap (kimda gumon bo'lsa) bosh gapdagi uni to'ldiruvchisini izohlagan.

2. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi orqali birikadi. Masalan: Men hech bir vaqt inkor qilmaymankim, yolg'iz o'z g'arazi yo'lida ish qiluvchi pand kishilar... bizda ham yo'q emas. (A.Qodiriy.) gapi tarkibidagi «yolg'iz o'z g'arazi yo'lida ish qiluvchi pand kishilar bizda ham yo'q emas» ergash gapi bosh gapda qo'llanmagan shuni to'ldiruvchisini izohlab, unga –ki bog'lovchisi yordamida birikkan.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan (yoki qo'llanmagan) so'zning ma'nosini izohlaydi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap tarkibida kim, kimki, kimning kabi olmoshlar qatnashib, kesim sharti mayli shaklida bo'ladi. Masalan: Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.

2. Ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi yordamida birikadi. Bunda bosh gap tarkibida shunday, shunaqa so'zlari keladi, ergash gap tarkibida esa bunday, bunaqa so'zlari qatnashadi. Masalan: SHunday odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi. (H.G'ulom.) Qalb shunday ummonki, uning bag'rida dahshatli dolg'alar silsilasi bor. (E.Vohidov.)

Ayrim hollarda olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi bosh gapda tushirilgan bo'ladi. Masalan: Shoirilar bo'ladiki, ularni bir kishi yolg'iz o'zi kechasi o'qiydi. (E.Vohidov.)

Payt ergash gap bosh gap voqea-hodisaning yuzaga kelish vaqtini, paytini bildiradi. Payt ergash gap bosh gap tomonidan beriladigan qachon? qachondan beri? qachongacha? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Payt ergash gap va bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi quyidagicha:

I. Bosh va ergash gaplardan anglashilgan voqea-hodisa bir paytda sodir bo'ladi. Bunda ergashgan qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi sifatdash shaklida bo'lib, uo'rin-payt kelishigida qo'llanadi. Masalan: U hovliga chiqqanda, Qumri bilan dugonasi supa yonida suhbatlashib turishardi. (H.G'ulom.) Kabinasi band mashinalar o'tganda, xudi yosh bolalardek quvonib ketardim. (Ch.Aytmatov.)

2. Ergash gapning kesimi sifatdash shaklida bo'lib, unga o'rin-payt kelishigidagi «payt», «vaqt», «chog'», «zamon» so'zlari birikib keladi. Masalan: Ular ko'chaga chiqqan vaqtda, palos, ko'rpachalar yozilgan edi. (H.G'ulom.) U idoraga kirib kelgan paytda qabulxona o'nga yaqin qari-qartang va Xotin-xalaj navbat kutib turardi. (N.Aminov.)

3. Ergash gapning kesimi «-(a)r ekan» shaklida bo‘ladi. Masalan: Raja baka hammangizni elektrostantsiyaning ortiga boshlab o‘tar ekan, Zulayho pastga tushdi. (P.Qodirov.) Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning jahli chiqdi. (CH.Aytmatov.) U kasalxonaning terakzor xiyoboniga kirib borar ekan, qaerdadir jajji bir qushcha chirqilladi. (O‘.Hoshimov.)

II. Bosh gapdagi harakat, holat ergash gapdagi harakat, holatdan oldin yuzaga keladi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha bog‘lanadi:

1. Ergash gapning kesimi –guncha affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanib, mazkur shakl ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Keyingi avtobus kelguncha, yigit... yangi «tog‘ asal»larini olib quti ustiga terib qo‘rdi. (J.Abdullaxonov.)

2. Ergash gapning kesimi ravishdoshning bo‘lishsiz shakli (-may, -masdan affikslari yasaluvchi shakli) bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, idoraga chollar kirishdi. (A.Qahhor.)

III. Bosh gapdagi voqea-hodisa ergash gapdagi voqea-hodisadan so‘ng ro‘y berardi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi –gach affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ikki yil o‘tgach, Mulla Fazliddin Andijon arkidagi to‘rxonaning ba‘zi naqshlarini yangilash uchun chaqirildi. (P.Qodirov.) Marosim tugagach, u oyisiga vagonda qaytajaklarini eslatgan edi. (M.Kozimiy.) Mehmonlar jo‘nab ketgach, u ... Solihovni o‘z huzuriga taklif etdi. (N.Aminov.)

2. Ergash gapning kesimi chiqish kelishigidagi sifat-dosh bilan ifodalanib, unga «keyin», «so‘ng» ko‘makchilari qo‘shiladi. Masalan: Oradan uch-to‘rt hafta o‘tgandan so‘ng, qo‘liga ... yigirma-o‘ttiz chaqa pul ham bergan edim. (A.Qodiriy.) Sud kengashga kirib ketgandan keyin, zal guvillab ketdi. (CH.Aytmatov.)

3. Ergash gapning kesimi «-gan edi» shaklida keladi. Masalan: Temirjon ... endigina yuvinishga tutingan edi hamki, shiypon yonidan yuz-qo‘lini yuvib, belbog‘iga artganicha kelayotgan Usmonali ota ko‘rindi. (J.Abdullaxonov.)

IV. Bosh gap va ergash gaplardagi voqea-hodisa ketma-ket yuzaga keladi. Bunda ergash gap kesimi «-gandan beri», «-gan sayin», «-gan sari» kabi shakllarda keladi. Masalan: ... cho‘l gullab-yashnagan sari, yilqilar pastlikka tusha boshlaydi. (CH.Aytmatov.)

O‘rin ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi.

Bunda ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo‘lib, ergash gap tarkibida qaerga, qaerda, qaerdan kabi nisbiy so‘zlar qatnashib, ular bosh gapdagi shu erga, shu erda, o‘sha erdan, o‘sha erda, o‘sha joyda kabi so‘zlarga mos keladi. Masalan: Qaerdagi erkaklar bilan ayollar bir-birlarini astoydil qadrlasa, o‘sha joyda ikki tomonning ham qadr-qimmatini ko‘tarilib ketyapti. (P.Qodirov.)

Sabab ergash gap bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi. Sabab ergash gap bosh gap orqali beriladigan nima uchun? nega? nima sababdan? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Sabab ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap bosh gapga chunki, negaki sabab bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Masalan: Samimiy aytilgan so'z sodda bo'ladi, chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo'ladi. (G' .G'ulom.) Tun nihoyatda qorong'i, chunki yangi tug'ilgan oy allaqachon botgan edi. (P.Qodirov.) Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi, negaki u o'zidan ham zo'r va fozil olim borligini biladi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

2. Ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois so'zlari vositasida birikadi. Masalan: Boshqalar yonida birovga ayblarini aytib nasihat qilish – uni odamlar oldida uyaltirishdir, shuning uchun holi joyda nasihat qilish kerak. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Kishining iste'dodi barcha sohada bir xil bo'lavermaydi, shuning uchun yoshlar o'zi sevgan, qobiliyatiga mos bo'lgan ishni tanlay bilishi kerak. (YO.SHukurov).

3. Ergash gap bosh gapga –mi yuklamasi orqali birikadi. Masalan: O'zi qattiqchilik bilan o'sgan emasmi, darrov ro'zg' orga kirishib keta qoldi. (O'.Hoshimov). Temirjonni sharjlar, kulgili surat solingan sahifalar ko'proq qiziqtirib qo'ydimi, uzoq-uzoq tikilib qolar, kulardi. (J.Abdullaxonov).

4. Ergash gap bosh gapga shekilli modal so'zi vositasida bog'lanadi. Masalan: Temirjonning qadalib tikilishi uning ham diqqatini tortdi shekilli, bir qarab qo'ydi. (J.Abdullaxonov).

5. Ergash gapning kesimi shart maylidagi fe'l va «kerak» modal so'zi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: Oy to'lishgan bo'lsa kerak, toshlar qirov rangida elas-elas ko'rinib turar edi. (S.Ahmad). Ba'zan ergash gapning shunday shaklidagi kesimiga –ki yuklamasi ham qo'shilishi mumkin. Masalan: Stol atrofida har kimning tayin joyi bo'lsa kerakki, Qunduz chaqqon borib qarshidan joy oldi. (J.Abdullaxonov).

6. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+uchun (yoki sababli, tufayli)» shaklida bo'ladi. Masalan: Dori yangi sepilgani uchun, dalada hech Kim ko'rinmaydi. (O'.Usmonov). Tog' qishloqlari notinch bo'lgani uchun, Toshtemir shu tomonlarga tez-tez keladigan bo'lib qoldi. (H.G'ulom).

7. Sabab ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+-dan» shaklida bo'ladi. Masalan: Bu taraflarda mashinalar ko'p qatnamaganidan, chang-to'zon bo'lmas edi. (S.Ahmad). Bu erda tez-tez yomg'ir quyib turganidan, daraxtlarning shundog'am beg'ubor barglari yuvilib xandon pista mag'zidek och yashil tusda ko'rinar edi. (S.Ahmad).

Maqsad ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan nima maqsadda? qay maqsad bilan? nega? so'roqlariga javob bo'ladi. Maqsad ergash gapning kesimi ko'pincha buyruq-istak maylidagi fe'llar ifodalanadi va maqsad ergash gapning bosh gapga birikishi quyidagicha:

1. Ergash gap bosh gapga deb, deya yordamchilari orqali bog'lanadi. Masalan: Hamma bahramand bo'lsin deb, yaxshi ishlash kerak. (Oybek).

2. Ergash gap bosh gapga uchun vositasida birikadi. Masalan: Tog'asi uni odobsiz demasin uchun, Hulkar choynakni ko'tarib uyga Avazdan keyin kirdi. (P.Qodirov).

3. Maqsad ergash bosh gapga toki maqsad bog'lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Bolalarni kitobga o'rgatish kerak, toki ular ishchi kuchi bo'lib emas, ongli, katta jamiyatning bilag' on a'zolari bo'lib etishsinlar. (S.Ahmad).

Ravish ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning qay tarzda, qay holda yuzaga kelishini bildiradi. Ravish ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan qanday? qay tarzda? qay holda? qanday qilib? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Ravish ergash gapning kesimi, asosan, fe'ning –(i)b affiksi bilan yasaluvchi o'tgan zamon ravishdoshi orqali shakllangan bo'lib, shu fe'l shakli ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham hisoblanadi. Masalan: Uy suv yuvib qiyalashgan silliq qirg' oqdan besh-olti qadamgina narida bo'lib, undan ilon izidek yolg'izoyoq yo'l daryoga cho'zilib tushgan edi. (O'.Usmonov). Birdan qo'llari bo'shashib, bog'layotgan bog'ichi barmoqlari orasidan chiqib ketdi. (O'.Hoshimov). Hozir ham supaning atrofii supurib-sidirilib, suv sepib qo'yilgan. (J.Abdullaev).

O'xshatish ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisani boshqa voqea-hodisaga o'xshatadigan, chog'ishtiradigan ergash turidir. O'xshatish ergash gapning kesimi ko'pincha –gan, –yotgan affikslari bilan yasaluvchi sifat-dosh bilan ifodalanib, bunday ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap kesimi –day, –dek affiksini olgan sifat-dosh bilan ifodalanadi. Masalan: Odatda mevaning sarasini qurt eganidek, bo'xton ham yaxshi odamlarga yopishadi. (J.Svift). Toshbaqa jayronni quvib etib g'ajib tashlashi mumkin bo'lmaganidek, Zaynabning o'z orzulariga etmog'i mumkin emasdi. (T.Malik).

2. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+kabi//singari» shaklida bo'ladi. Masalan: Bulutlar ortiga yashiringan quyosh yuzidagi pardani shartta olib tashlab, olamni munavvar qilgani kabi, uning ham chehrasi birdan yorishib ketdi. (J.Abdullaxonov).

3. Ergash gapning kesimi «-gan yoki –yotgan+jo'nalish kelishigi affiksi+o'xshab//o'xshash» shaklida bo'ladi. Masalan: Yo'l borgan sari uzoqlashib ketayotganga o'xshab, sira poyoni ko'rinmasdi. (S.Ahmad).

4. Ergash gap bosh gapga go'yo, xuddi yordamchilari vositasida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gapning kesimi tarkibida odatda –day, –dek affiksi ham qatnashadi. Masalan: Ba'zi qushlarning qanotlari yozilgan, go'yo ulab uchib tushmoqchiday edi. (Oybek).

Miqdor-daraja ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakat-holatning qay miqdorda, qay darajada bajarilishini bildiradi.

Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap tarkibidagi qancha, qanchalik, nechog'lik so'zlari bosh gapdagi shuncha, shunchalik, shu darajada kabi so'zlarga mos keladi.

Miqdor-daraja ergash gapning kesimi fe'ning shart mayli bilan ifodalanib, shu fe'l shakli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo'lsa, ba'zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi. (A.Qahhor).

Shart ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. SHart maylidagi fe'l bilan. Masalan: Er baquvvat bo'lsa, g' o'za baquvvat o'sib, hech qanday dardga chalinmaydi. (J.Abdullaxonov). Da'vogar sust kelsa, qozi muttaham ... (H.G'ulom).

Ba'zan shart ergash gapda agar, bordi-yu, basharti, mabodo kabi so'zlar kelib, ular gapdan anglashilgan shart mazmunini kuchliroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Mabodo biror odam o'zicha to'y qilsa, ayni bazm qizigan paytda chiroq o'chirib qo'yiladi. (O'.Hoshimov). Agar bir daraxt kessangiz, o'rniga yangi novdalar ko'karib chiqadi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Ba'zan shart ergash gapning kesimi «-gan+da» shaklida bo'ladi va bu shakl ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan: Agar yozuvchi ko'ksida shunday bir nur – toza iymon bo'lmaganda edi, uning shaytanat olamiga safari besamar chiqmog'i ham mumkin edi (T.Malik).

3. SHart ergash gap bosh gapga –mi, -chi yuklamasi yordamida ham birikishi mumkin. Masalan: Xatosini bo'yniga oldimi, egilgan boshni qilich kesmaydi.

To'ciqsiz ergash gap mazmunan bosh gapga zid bo'lsa ham, unda ifoda qilinayotgan fikr bosh gapda ifoda qilinayotgan fikrning bajarilishiga to'siq bo'lmaydi.

To'ciqsiz ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. SHart mayli affiksi + ham yuklamasi orqali: Ular o'tirgan joyga sel kelmagan bo'lsa ham, Oqdaraning shag'irlashi quloqlariga chalingan edi. (P.Qodirov). Hovli sotilib ketgan bo'lsa ham, qarindoshlardan a'lo qo'shnilarim bor. (Mirmuhsin).

Ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun bosh gap tarkibida zidlovchi bog'lovchi ham keladi: Mahfuza Rayhonga dastlab yotsirab qaragan bo'lsa ham, lekin uning mehribonliklari qizaloq ko'nglini sekin-asta yumshatdi. (H.G'ulom).

2. SHart mayli affiksi + da yuklamasi orqali: Uning so'zlari garchi o'q kabi botayotgan bo'lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (T.Malik).

3. Ergash gapning kesimi bo'lishsiz shaklida qo'llangan buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi: Ona ishdan qanday o'y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko'zlarni ko'riboq, ko'ngli yozilar edi. (A.Muxtor).

4. To'ciqsiz ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+bilan» shaklida bo'ladi: Yo'q, ayniqsa Jo'raqulovga o'xshagan kishilar ... sip-silliqqina ko'ringani bilan, dilida qancha siru sinoatlar borligini hamma ham bilavermaydi. (Mirmuhsin). Darvozasi ko'rimsiz bo'lgani bilan, bu hovlining o'ngi ichida ekan. (T.Po'latov). Zaynab o'zini engilroq his qilgani bilan, boshi garang edi. (T.Malik).

Natija ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildirib, bosh gapga –ki aniqlov bog'lovchisi orqali bog'lanadi. Bunda bosh gap tarkibida ko'pincha shu qadar, shunday, shuncha, shunchalik, chunon (ergash tarkibida esa natijada, oqibatda kabi so'zlar) qo'llanadi. Masalan: YUlduzlar shu qadar ko'p chiqqan ediki, allaqanchasi Somon yo'lining ortlarida ham milt-milt qilardi. (P.Qodirov). ... nafas olish shunday engilki, keksa odam ham bu erda bolalik paytlarini eslaydi. (P.Qodirov).

Mavzu: Bog'lovchisiz qo'shma gap-4 soat

Reja:

Qismlarining o'zaro bog'lovchi vositalarsiz birikishidan tuzilgan qo'shma gap bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Bunday qo'shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun va qurilish jihatdan bog'lashda ohang (ohang) etakchi vazifa bajaradi. Masalan: Tashqarida qor uchqunlanib turar, daraxtlarning shoxlari kumush rangda tovlanib, ko'zni qamashtirardi. (J.Abdullaxonov).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qismlari ko'pincha tenglik ohangsi orqali bog'lanadi. Masalan: Oldindan salqin shabada esa boshladi, yo'l qishloqning tutzor ko'chasiga kirdi. (SH.Xolmirzaev). Piyozi po'sti ko'p, yomonning do'sti ko'p. (Maqol). Ba'zan bunday qo'shma gaplarning predikativ qismlari tobelik ohangsi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: Ortiq ham o'zicha quvonib qo'ydi: sintetik o'tovning narhi salkam ikki ming so'm... (P.Qodirov).

SHuning uchun ham tenglik ohangsi orqali tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gap mazmunan bog'langan qo'shma gapga, tobelik ohangsi orqali tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gap ergashgan qo'shma gapga mos keladi. Ammo ba'zi bir bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi ohang tenglik va tobelik holatidan o'zgacha bo'ladi. Masalan: So'z doriga o'xshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning turlari

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining qanday shakllanishiga ko'ra, ikki xil bo'ladi:

1. Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap. Bu xil qo'shma gap qismlarining kesimlari bir xil shakllangan bo'ladi: CHin muhabbat husn tanlamas, Husn uchun sevmas vafodor. (SHukrullo).

Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi semantik munosabatlar quyidagicha bo'ladi:

1. Bir paytda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar anglashiladi: Motor esa zo'r berib tirillar, mashina silkinar edi. (CH.Aytmatov).

Bunday paytda butun vujudida ajoyib bir safarbarlik sezar, xotirasi, zehni, shuuri bir nuqta atrofida inoq to'planardi. (P.Qodirov).

2. Ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashiladi: Tog' tepasida to'planayotgan bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi, oftob g'oyib bo'ldi. (P.Qodirov).

3. Voqea-hodisalar qiyoslanadi: Bahodir qo'shinga boshchilik qiladi, donishmand yo'l ochib beradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). YAngi libos – oroyish, yaxshi yo'ldosh – osoyish. (Maqol).

4. Voqea-hodisalar qiyoslanadi: Adolatparvar bo'lish oson - e'tiqodning uchun kurashish qiyin. (F.Musajonov).

II. Turli tipdagi qismlardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap. Bu xildagi qo'shma gap qismlarining kesimlari turlicha shakllanadi. Bunda qo'shma gap qismlaridan anglashilgan voqea-hodisalar bir-biriga bog'liq bo'ladi. Masalan: Aqlli,

farosatli, ilmu hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bu turida tarkibidagi qismlar orasida quyidagi semantik munosabatlar yuzaga keladi:

1. Sabab munosabati anglashiladi: Havo yaxshi, dalada dehqonlar yig'im-terim bilan ovora. (Oybek). Nomarddan yordam so'rama, yuzingga soladi. (Maqol).

2. Payt munosabati anglashiladi: Quyosh pasayib oppoq cho'qqilar ustiga qo'na boshlagan, tog' ning qori ko'zni olar darajada yaltiraydi. (P.Qodirov).

3. To'siqsizlik munosabati anglashiladi: Bular bizni oyoq osti qilib tepyapti, sen uyda baqrayib o'tiribsan. (P.Qodirov). Biz ilmdan yiroqmiz, tajriba bor, xolos. (J.Abdullaxonov).

4. Natija munosabati anglashiladi: SHuncha xo'jalik yangi uylarga ko'chib kirdi, Oyko'l butunlay o'zgarib ketdi. (P.Qodirov).

5. Izoh munosabati anglashiladi: ... bir narsa mening esimda turibdi: Oyko'l g'allani ko'p olgan yillari chorvasi ham hozirgidan besh barobar ko'p edi. (P.Qodirov). Bu gapdan Ismat bobo bir cho'chib tushdi: u Kattaevning eng yaqin kishilaridan edi. (P.Qodirov).

6. Shart munosabati anglashiladi: *Ozroq kutib turgin, tez kelaman.* (S.Ahmad).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashilsa, ular bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Qushbegiga qaradim, ul ham manim og'zimga qarab turar edi. (A.Qodiriy). Siz marg'ilonlik og'aynilarni qipchoqlarga qarshi oyoqlantirmoqchi bo'lasiz, buni ham yaxshi bilamiz... (A.Qodiriy).

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari mazmun jihatdan mustaqilroq bo'lsa yoki ular turkibida vergul ishlatilgan bo'lsa, qo'shma gap tarkibidagi qismlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratilib yoziladi. Masalan: *Ishing bo'lmasa kitob o'qi, husnixat ol; sen kulolning qizi emassan...* (A.Qodiriy). *Yosh chog'ida ... qattiqchilikda o'sdi; uning ba'zi yarashmagan harakatlari balki o'sha qattiqchilikning ruhga singib qolgan yomon ta'sirdir.* (A.Qodiriy).

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo'lagini izohlasa, uning mazmunini to'ldirsa, qismlar orasiga ikki nuqta qo'yiladi. Masalan: *Arslonbob yong' oqlariga kelganda shuni aytmoqchiman: bular nihoyatda noyob, zotli yong' oqlar.* (J.Abdullaxonov). *Xolbek bir narsani endi sezmoqda edi: Avaz bilan Hulkar unga negadir kerak edi.* (P.Qodirov).

4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bir-biridan tire orqali ajratiladi. Quyidagi holatlarda qo'shma gap qismlari orasiga tire qo'yiladi:

1) qo'shma tarkibidagi gaplar mazmunan zid bo'lsa: *Kiygan to'ning eskiydi – kiydirganing eskimas.* (Maqol).

2) birinchi gap ikkinchi gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish natijasi yoki shartini bildirsa: *Qaring bor – baring bor.* (Maqol).

3) birinchi gap mazmuni ikkinchi gap mazmuniga o'xshatilsa: *Qor yog' di – don yog' di. (Maqol). Vaqting ketdi – baxting ketdi. (Maqol).*

4) qismlardan tez almashinuvchi voqea-hodisalar anglashilsa: - Hoy, oyimcha, sen yaxshi bo'lding – biz yomon bo'lib qoldikmi hali?... (P.Qodirov). SHu payt oy bulutlar orasidan suzib chiqdi – kamtigi bulutning chetiga urilib, sho'x bir silkinib qo'yganday ko'rindi. (P.Qodirov).

Mavzu: Murakkab qo'shma gap

Reja:

Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot

Qo'shma gaplar komponentlarning soniga ko'ra, ikki xil bo'ladi: 1) ikki komponentli qo'shma gaplar (bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar bahsiga qarang), 2) ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar.

Ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'ladi.

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi qismlar (komponentlar) o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi. SHunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap.

2. Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo'shma gap.


4. Aralash tipdagi tuzilgan murakkab qo'shma gap.

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap komponentlari (qismlari) o'zaro teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchilar vazifasidagi yuklamalar orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Bunday murakkab qo'shma gap, tarkibidagi komponentlarning bog'lanish usullariga ko'ra, shuningdek, ularning semantik munosabatlariga ko'ra, bog'langan qo'shma gapdan farq qilmaydi, lekin bunda komponentlar soni uch va undan ortiq bo'ladi. Masalan: Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi va terimchilar soni to'rt kishiga ortdi. (P.Qodirov).

Keltirilgan misol 3 ta komponent murakkab qo'shma gap tarkibida qatnashib, birinchisi ikkinchisiga teng bog'lovchi vazifasidagi –yu yuklamasi bilan, ikkinchisi uchinchisiga va bog'lovchisi bilan bog'langan. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gapni quyidagi chizgi bilan ko'rsatish:




2. Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gapda ergash gap bir necha bo'lib, ular bitta bosh gapga tobelanadi. Qo'shma gapning bu turi bir necha ergash gapli qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Bunday qo'shma gapda ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

1. Birgalik ergashishda qo'shma gap tarkibidagi bir necha ergash gaplar biri ikkinchisi bilan grammatik aloqaga kirishmay, to'g' ridan-to'g' ri bosh gapga bog'lanadi. Masalan: *Ot to'xtaganida, u kuch yig'ib olsin deb, Tanaboy kutib turar ... edi.* (CH.Aytmatov).

Bu qo'shma gapning sxemasi (chizgisi) quyidagicha:



Birgalik ergashuvli murakkab qo'shma gap ikki xil bo'ladi:

1) bir tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar bir xil turga mansub bo'ladi va ularning har biri bosh gapning ma'lum bo'lagini yoki bosh gapni butunicha bir xilda izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Bunday ergash gaplar uyushgan ergash gaplar deb yuritiladi. Murakkab qo'shma gap tarkibida ergash gapning har bir turi uyushib kelishi mumkin. Ularning ayrimlariga misollar:


a) ega ergash gaplarning uyushib kelishi: Yo'lciga shunisi qiziq tuyuldi, bu erda ... hamma daraxtlar bir chiziq ustida tekis saf tortib turadi, daraxtlar o'rtasidagi masofa ham baravar. (Oybek);

b) aniqlovchi ergash gaplarning uyushishi: SHunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (A.Muxtor);

v) sabab ergash gaplarning uyushib kelishi: Kun bo'yi piyoda yurib charchadimmi, karnaydan hadeb yangrayotgan muzika elitdimi, uxlab qolibman. (O'.Hoshimov);

g) ravish ergash gaplarning uyushib kelishi: Adirlarni qoplab yotgan qor tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'kara boshladi. (CH.Aytmatov).

Bir tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:




2) turli tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar har xil bo‘ladi va ularning har biri bosh gapdagi biror bo‘lakni yoki bosh gapni butunicha turli tomondan izohlaydi, aniqlaydi, to‘ldiradi.

Ularning so‘roqlari ham har xil bo‘ladi. Bunday ergash gaplar uyushmagan ergash gaplar deb yuritiladi: Qor tingach, tashqarida juda sovuq bo‘lsa ham, ular tekshirishni davom ettirdilar. (CH.Aytmatov).


Bu qo‘shma gapda payt ergash gap va to‘siqsiz ergash gap bosh gapni turli tomondan izohlab kelgan.

Turli tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:



2. Ketma-ket ergashishda ergash gaplar bosh gapga to‘g‘ ridan-to‘g‘ ri tobelanmay, biri ikkinchisiga bo‘ysunib, so‘ng bosh gapga bog‘lanadi. Bu xil qo‘shma gaplarda ergash gaplar mazmunan zich bog‘langan bo‘ladi va ergash gaplardan biri tushirilsa, umumiy mazmun anglashilmay qoladi. Masalan: YUk oz bo‘lsa ham, olis va o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas. (CH.Aytmatov).

Ketma-ket ergashishni chizgida quyidagicha ko‘rsatish mumkin:




3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap toifasidagi (bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo‘shma gaplar

Murakkab qo‘shma gapning bu turida uch va undan ortiq gaplar bog‘lovchi vositalarsiz, ohang (ohang) orqali bog‘lanadi, bu jihatdan u oddiy bog‘lovchisiz qo‘shma gapdan farqlanmaydi, lekin bunda gaplar orasidagi semantik munosabatlar murakkabroq bo‘ladi:

1) gaplar o‘zaro teng munosabatda bo‘ladi: *Shamol hamon qarshidan esar, yashin «lip-lip» qilar, momaqaldiraq daraning yuqorisida gumburlar edi. (P.Qodirov). Suv tiniq, yaproqlar qirmizi rang tortgan, havo musaffo edi. (F.Musajonov). Lahzada do‘kon chollar, yigitlarga to‘ldi, barcha shod, g‘ ovur-g‘uvur, suhbat boshlanib ketdi. (Oybek).*


Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



2) **teng munosabatdagi ikki va undan ortiq gaplar ular uchun umumiy gapdan anglashilgan fikrni izohlab keladi:** *Tushdan keyin hamma jonlanib qoldi: birov hazil qilgan, birov shang'illab qandaydir voqeani so'zlagan, eng dangasa ishyoqmaslar ham allanechuk serg'ayrat, chaqqon bo'lib qolgan. (F.Musajonov).*

Ikki kvartal naridagi keng xiyobon juda o'tirishli joy: o'rtasi gulzor, uning kichkina favvorasi ham bor. (F.Musajonov).

Keltirilgan gaplarning chizgisi quyidagicha:



5. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo'shma gap

Aralash murakkab qo'shma gap bir necha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

1) bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Bunday gaplarning qismlari ham tenglanish, ham tobelanish aloqalari orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Masalan: *Qutidor do'koniga jo'nagandan keyin, Oftob oyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi. (A.Qodiriy).*


Keltirilgan misolda birinchi gap (payt ergash gap) ikkinchi gapga (bosh gapga) ergashish yo'li bilan birikkan, bularning ikkalasi uchinchi gap bilan «va» biriktiruv bog'lovchisi orqali bog'lanish yo'li bilan munosabatga kirishgan.

Yana bir misol: *Qilichdan etgan jarohat tildan etgan jarohatga qaraganda engilroqdir, chunki qilich badanni jarohatlaydi, til esa qalbni jarohatlaydi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).*

2) bog'lanish yo'li bilan va bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Bunday aralash murakkab qo'shma gap qismlari o'zaro ham teng bog'lovchilar (yoki teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar), orqali, ham bog'lovchisiz munosabatga kirishadi: *Yigitning rangi oppoq, ko'zlari bo'lsa bir o'rinda to'xtab qolgan, harakatsiz, egnida ... ola-bula matodan to'qilgan ko'ylagi bor edi. (M.Kozimiy).*

Bunda birinchi gap ikkinchi gap bilan o'zaro «bo'lsa» qiyoslov bog'lovchi yordamida bog'lanish yo'li bilan, uchinchisi bilan ohang orqali aloqaga kirishgan. Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



3) ergashish yo'li bilan va bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Bunday aralash murakkab qo'shma gap qismlari o'zaro ham ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar, ham bog'lovchisiz

munosabatga kirishadi: Dilda saqlangan adovat temir zangiga o'xshaydi, zang temirni egani kabi, adovat qalbni azob va izzat bilan emiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

4) har uch munosabat: bog'lanish yo'li bilan, ergashish yo'li bilan va bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap. Bunday qo'shma gap qismlarining o'zaro munosabati turlicha bo'ladi:

Tolib aka eski xodim, umri shu redaksiyada o'tgan va uni bu erdan haydab bo'lmaydi, shuning uchun Ahmadning o'zi ketishi kerak. (F.Musajonov).

Bu aralash murakkab qo'shma gap to'rtta gapdan tuzilib, birinchisi ikkinchisiga bog'lovchi vositalarsiz, ikkinchisi uchinchisi bilan «va» biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'lanish yo'li bilan munosabatga kirishgan, birinchi uchala gap yaxlit holda to'rtinchi gapga sabab munosabati orqali ergashish yo'li bilan birikib kelgan.

Mavzu: O'zga gap va undan nutqda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zga gap turlari
R E J A:

Muallif o'z nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar **ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, dialog** va **ko'chirma** shaklida beriladi.

Ko'chirma gap

O'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi **ko'chirma gap** deyiladi. Ko'chirma gapda ikki xil gap bo'ladi: **ko'chirilgan gap** va **muallif gapi**. Ikkalasi birgalikda **ko'chirma gapli qo'shma gapni** hosil qiladi (20; 66). Muallif gapining kesimi *dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zladi, aytdi* kabi fe'llar bilan ifodalandi. Ko'chirma gaplar so'zlashuv va badiiy uslublarda ko'p ishlatiladi. Ko'chirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: *"Mehnat ishtaha ochar", - deydi bobom. CHo'pondan so'radik: "Bu qo'ylar kimning qo'yi?" "Men, - dedi u, - ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo'q, - dedi.(J.Abd.)*

Ko'chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Ko'chirma gapda, ko'chirilgan gapning o'rniga qarab, tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Ko'chirilgan gap darak gap bo'lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo'yiladi: *"YUring, men o'sha tomonga boraman", - dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). So'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin qo'yiladi.

2. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling! ("El desa Navoiyni")*

3. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo'lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *"Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandirni qurolmadim". ("El desa Navoiyni")*

2) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng esa nuqta qo'yiladi: *"Noyib to'raning gaplaridan bilinadi o'zi, dedi Miryoqub. – Siz bo'lgan gaplarni aytib bering". (CH.)*

3) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng so'roq yoki undov belgisi qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan avval o'sha belgi va tire qo'yiladi, muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: *"Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan!".(CH.)*

4. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi; ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.*

2) ko'chirilgan gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ularning belgilari qo'shtirnoq ichida bo'ladi: *O'qituvchimiz: "Sen qaysi badiiy kitoblarni o'qib chiqqansan?" - deb so'radilar.*

5. Ko'chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo'yiladi. Bu luqmalarda muallif gapi bo'lmaydi: *- SHaharda qarindoshingiz bormi? - Yo'q.*

O'zlashtirma gap

O'zgalarning shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o'zlashtirma gap** deyiladi. O'zlashtirma gap ko'chirma gapga aylantirilishi mumkin bo'lgan gapdir: *Qurbon ota ertaga kelishini aytdi (o'zl. gap) – Qurbon ota dedi: "Men ertaga kelaman" (ko'ch. gap).*

So'roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Bu qanday bino, nimaga mo'ljallaysiz? - dedi O'ktam.	O'ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo'ljallanishini so'radi

Undalma, kirish so'z qatnashgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so'zlar tushib qoladi, undalma vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko'rsatuvchi so'zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Xo'sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? - so'radi O'ktam. - Men ketdim, - dedi ukasi.	O'ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so'radi. Ukasi o'zining ketayotganini aytdi.

O'zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so'ramoq, undamoq* (demoq fe'lidan tashqari) so'zlari bilan ifodalanadi.

Ko'chirma va unda ishlatiladigan tinish belgilari

Biror matndan ko'chirilgan gaplar **ko'chirma** deyiladi. Ko'chirma ikki xil bo'ladi:

1. Muallif gapi bilan birga qo'llangan ko'chirma: *Alisher Navoiy ilm olishga da'vat qilib: "Olim bo'lsang, olam seniki", - degan edi.*

2. Muallif gapisiz qo'llangan ko'chirma:

Koinot gultoji insondir azal,

Undadir eng oliy tafakkur, amal.

U hatto tubanlik ichra ham tanho,

YO falak, ijoding buncha mukammal.

A.Oripov

Muallif gapi bilan qoʻllangan koʻchirma bayon qilinayotgan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. Sheʼriy parchalar koʻchirma tarzida keltirilsa, qoʻshtirnoqqa olinmaydi. Koʻchirma muallif gapisiz qoʻllansa ham, qoʻshtirnoqqa olinmaydi. Bu tarzidagi koʻchirmalar **epigrafi** tarzida qoʻllanadi va qoʻshtirnoqqa olinmaydi.

5-§. Dialog

Ikki kishining nutqi **dialog** deb ataladi. Dialogda koʻchirma gaplardan foydalaniladi, har bir gap tire bilan boshlanadi. (Bunda muallif gapi ishlatilmasligi ham mumkin.): - *Qaysi maktabda oʻqiyasan?* - *24-maktabda.* - *Nechanchi sinfda?* - *Beshinchi sinfda.*

Blits-soʻrov savollari:

1. Fe'ning vazifadosh shakllari haqida tushuncha bering.
2. Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
3. Sifatdoshning sifatga xos va fe'lga xos belgilarini tushuntiring.
4. Harakat nomi va uning yasalishi.
5. Sof fe'ning vazifadosh shakllardan farqini ayting.

Mavzu: Muallif oʻz nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar **koʻchirma gap, oʻzlashtirma gap, dialog** va **koʻchirma** shaklida beriladi.

Koʻchirma gap

Oʻzgalarning hech oʻzgarishsiz berilgan gapi **koʻchirma gap** deyiladi. Koʻchirma gapda ikki xil gap boʻladi: **koʻchirilgan gap** va **muallif gapi**. Ikkalasi birgalikda **koʻchirma gapli qoʻshma gapni** hosil qiladi (20; 66). Muallif gapining kesimi *dedi, deb soʻradi, deb javob berdi, gapirdi, soʻzladi, aytdi* kabi feʼllar bilan ifodalandi. Koʻchirma gaplar soʻzlashuv va badiiy uslublarda koʻp ishlatiladi. Koʻchirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: "*Mehnat ishtaha ochar*", - *deydi bobom. CHoʻpondan soʻradik: "Bu qoʻylar kimning qoʻyi?" "Men, - dedi u, - ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yoʻq, - dedi.(J.Abd.)*

Koʻchirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Koʻchirilgan gap qoʻshtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Koʻchirma gapda, koʻchirilgan gapning oʻrniga qarab, tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha boʻladi:

1. Koʻchirilgan gap darak gap boʻlib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qoʻyiladi: "*YUring, men oʻsha tomonga boraman*", - *dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). Soʻroq va undov belgilari qoʻshtirnoq yopilmasdan oldin qoʻyiladi.

2. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling! ("El desa Navoiyni")*

3. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo'lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *"Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandinri qurolmadim". ("El desa Navoiyni")*

2) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng esa nuqta qo'yiladi: *"Noyib to'raning gaplaridan bilinadi o'zi, dedi Miryoqub. - Siz bo'lgan gaplarni aytib bering". (CH.)*

3) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng so'roq yoki undov belgisi qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan avval o'sha belgi va tire qo'yiladi, muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: *"Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? - dedi. - Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan!".(CH.)*

4. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi; ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.*

2) ko'chirilgan gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ularning belgilari qo'shtirnoq ichida bo'ladi: *O'qituvchimiz: "Sen qaysi badiiy kitoblarni o'qib chiqqansan?" - deb so'radilar.*

5. Ko'chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo'yiladi. Bu luqmalarda muallif gapi bo'lmaydi: *- SHaharda qarindoshingiz bormi? - Yo'q.*

O'zlashtirma gap

O'zgalarning shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o'zlashtirma gap** deyiladi. O'zlashtirma gap ko'chirma gapga aylantirilishi mumkin bo'lgan gapdir: *Qurbon ota ertaga kelishini aytdi (o'zl. gap) - Qurbon ota dedi: "Men ertaga kelaman" (ko'ch. gap).*

So'roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Bu qanday bino, nimaga mo'ljallaysiz? - dedi O'ktam.	O'ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo'ljallanishini so'radi

Undalma, kirish so'z qatnashgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so'zlar tushib qoladi, undalma vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko'rsatuvchi so'zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Xo'sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? - so'radi O'ktam. - Men ketdim, - dedi ukasi.	O'ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so'radi. Ukasi o'zining ketayotganini aytdi.

O'zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so'ramoq, undamoq* (demoq fe'lidano tashqari) so'zlari bilan ifodalanadi.

Ko'chirma va unda ishlatiladigan tinish belgilari

Biror matndan ko'chirilgan gaplar **ko'chirma** deyiladi. Ko'chirma ikki xil bo'ladi:

1. Muallif gapi bilan birga qo'llangan ko'chirma: *Alisher Navoiy ilm olishga da'vat qilib: "Olim bo'lsang, olam seniki", - degan edi.*

2. Muallif gapisiz qo'llangan ko'chirma:
Koinot gultoji insondir azal,

*Undadir eng oliy tafakkur, amal.
U hatto tubanlik ichra ham tanho,
YO falak, ijoding buncha mukammal.*

A.Oripov

Muallif gapi bilan qoʻllangan koʻchirma bayon qilinayotgan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. SHeʼriy parchalar koʻchirma tarzida keltirilsa, qoʻshtirnoqqa olinmaydi. Koʻchirma muallif gapisiz qoʻllansa ham, qoʻshtirnoqqa olinmaydi. Bu tarzdagi koʻchirmalar **epigraf** tarzida qoʻllanadi va qoʻshtirnoqqa olinmaydi.

5-§. Dialog

Ikki kishining nutqi **dialog** deb ataladi. Dialogda koʻchirma gaplardan foydalaniladi, har bir gap tire bilan boshlanadi. (Bunda muallif gapi ishlatilmasligi ham mumkin.): - *Qaysi maktabda oʻqiysan?* - *24-maktabda.* – *Nechanchi sinfda?* – *Beshinchi sinfda.*

AMALIY MASHG'ULOTLAR:

1-mavzu: Sodda va qo'shma gaplarni aniqlash, ularni farqlash yuzasidan mashqlar va testlar

1-mashq. Berilgan matndan avval sodda gaplarni, so'ngra qo'shma gaplarni yozing. Qo'shma gap qismlari sonini, qanday bog'langanini izohlang.

Darada havo issiq, hamma yerdan qarag'ay va archa hidi anqirdi. Tevarak-atrof igna bargli ko'm-ko'k daraxtlar bilan qoplangan. Yirik shag'al yo'ldan tepalikka ko'tarilish ancha mushkul edi. Havo issiq, suv ichkilari kelardi. Hamon suv uchramasligidan hayron bo'lishardi. Shu daradan qor bosgan Qrasnaya Polyana degan joyga o'tishlari kerak edi. Shu yerda daryocha bo'lishi kerak, lekin undan hamon darak yo'q edi. Qaragaylar uchini shitirlatib shamol esardi, ammo shamol ovozi sukunatni buzmay uni yanada chuqurlashtirardi. Borgan sari oyoq ostidagi kul rang, ba'zi joylarda esa oppoq tus olgan shag'al birdaniga qoraya boshladi va o'n minut o'tmasdan shag'al orasida shildirab oqayotgan ariqchani ko'rdilar, olisdan esa shovillagan ovoz eshitildi. Sal keyinroq ular ayqirib oqayotgan oqim bo'ylab ketaverdilar, suvdan esgan muzdek shamol oyoqlarini junjiktirdi. Keyin ular qor bosgan maydonchaga ko'tarildilar, hamma yoqni yana sukunat bosdi, chunki qor erib, uning ostidan chiqayotgan oqim pastda qolgan edi. Ular qor ustidan yana balandroq ko'tarildilar va hech zot yo'q shu balandlikda ularda qandaydir notanish yuksak tantana, ko'tarinkilik ruhi paydo bo'ldi. (Yu. Semyonov.)

2-mashq. Gaplarni o'qib, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarni ajrating, ular orasidagi farqni izohlang.

1. Qovun pishmagan, lekin sap-sariq pishgan do'mboq-do'mboq handalaklar ko'p edi. (O.) 2. Kun sovuq bo'lsa ham, u terlab ketgan edi. (S. Kalmikov.) 3. Bizning nafratimiz dahshatli, irodamiz, g'alabaga bo'lgan ishtiyoqimiz esa cheksizdir. (Yu. Semyonov.) 4. Kechqurun tiniq osmonda ilk yulduzlar charaqlaganda, hamma qishloqqa qaytadi. (O. Yo.) 5. Tuman tarqaldi va men butun astronomik kuzatuvlarimizni amalga oshira olishimizga umidvor bo'la boshladim. (J. Vern.) 6. Mening hamma istaklarim, butun vujudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o'zim uchun eng ulug' baxt deb bilaman. (Abu Rayhon Beruniy.) 7. Bilamanki, har bir orzuning o'ziga yarasha tashvishi bor. (M. Muhamedov.) 8. Uch-to'rt g'o'la arralaguncha, onam qora terga botdi. (N. S.) 9. Ko'z yoshidek toza tomchilar Qilar ekan daryoni paydo, Daryo bo'lsa gul vodiylarni etar ekan o'ziga shaydo. (H. O.)

3-mashq. Qo'shma gaplarning turini aniqlang. Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ko'chiring, bog'lanishini tushuntiring.

1. Ular butun vujudi bilan ishga sho'ng'ib ketishgandi-yu, ammo texnika etishmasdi. (Ch. Ayt.) 2. Hamma quvnoq, hammaning yuzida baxt balqib turibdi. (S. Z.) 3. Men uni taniyman, allaqaysi bir zavodda ishlaydi. (M. Muhamedov.) 4. Aprel oyining oxirlari bulsada, kecha xuddi sentyabrdagidek qop-qorong'i edi. (L. Sh.) 5. Qatta ariqning narigi sohili ularniki, berigi sohili bizniki. (Ch. Ayt.)

4- *mashq*. O'qing. Sodda va qo'shma gaplarni aniqlang. Sodda gaplarni ko'chirib, ular tarkibidagi so'z birikmalarini ajrating.

Akram jar yoqasidagi jiydazorga etib borganida, osmonda ham, soydagi suvda ham milt-milt yulduzlar yondi, tegirmon ustidagi oq terak shoxlari orasida sirg'aday yaltillab yarim oy ko'rindi... Atrof jimjit edi. Faqat novdan quyilayotgan suv shovillar, tegirmon parraklari guvillar edi. Goho-goho tog'dan esgan engil shabada jiyda shoxlarini silab shitirlatib qo'yardi!.. Akram jiyda shoxlarini egib, yuziga bosdi. Jiyda gulini to'kkan bo'lsa-da, oqish yaproqchalar va gul tugunchalarining xushbo'y hidi dimog'iga gupillab kirib, ko'ngli yayrab ketdi. Shu payt qaerdadir yuqorida, jar ustidagi bog'lar orasida, ayol kishilarning shivir-shiviri va bo'g'iq kulgisi eshitildi. Ilgarilari Hamida bilan Malohat doim o'sha tomondan tushib kelishardi. (*O. Yo.*)

5- *mashq*. O'qing va yozing. Qo'shma gap turini aniqlang. Har bir misoldan so'ng qo'shma gap qismlarining bog'lanishini sxemada ko'rsating.

1. O'qishiga xalaqit beradigan nimaiki uchrasa, hammasini keskin rad etib kelyapti. (*P.Q.*) 2. Sen ilmga o'zingni butkul bag'ishlamasang, ilm senga hech nima in'om qilmaydi. (*T. Malik.*) 3. Donishmandning shohga ehtiyoji yo'q, ammo shoh donishmandga hamisha muhtojdir. (*T. Malik.*) 4. Foyda bermas nodonlarga haqiqat shamin yoqish, Budir go'yo kecha-kunduz zarang toshga mix qoqish. (*H. Irfon.*) 5. G'orning og'zini portlatib butkul berkitib qo'yish kerak, toki birorta odam ham u erga kirolmasin! (*H. Shayxov.*) 6. Ie, bahor kirganini sezmay qolibmanmi yo bu bir kechada gullab chiqibdimi... (*P. Q.*) 7. Naima to'g'risidan tashvish yo'q; husn, odob, yumush hammasidan ko'ngil to'q. (*A. Qod.*) 8. Kecha kechqurun oynangiz qarsillab singan zahoti yugurib ko'chaga chiqsam, Qosimov muyulishda qochib borayotgan ekan. (*O'. Usmonov.*) 9. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg'irin badanni junjiktiradi. (*T. Malik.*) 10. Darhol ichkarida engil oyoq sharpasi eshilib, eshik asta ochildi. (*O. Yo.*)

2-mavzu: Qo'shma gap qismlari va ularning o'zaro bog'lanishi, mazmun munosabatini aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Savol va topshiriqlar

1. Qo'shma gapning ta'rifini ayting.
2. Sodda va qo'shma gap o'rtasida qanday farq bor?
3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro qanday vositalar bilan bo'jlanadi?
4. Qo'shma gapning qanday turlari bor?
5. Bog'langan qo'shma gap ta'rifini ayting.
6. Bog'langan qo'shma gap turlarini sanang.
7. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
8. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
9. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
10. Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.

1-ilova

”Jadvalli mashqlar to'plami”dan uyga berilgan mashqlar so'raladi. (Kitob shaklida mavjud).

2-ilova.

“Lisoniy tahlil qoliplari”dan variantlar bajariladi. (Kitob shaklida mavjud).

3- ilova.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlarini bajarish (test variantlari alohida beriladi).

1. Qaysi juftliklarning har ikkalasi qo'shma gap sanaladi?

A) Mingboshi yaxshi biladiki, Miryoqubdan boshqa chin ko'ngildan kuyadigan odam yo'q. Mingboshi Miryoqubdan boshqa chin ko'ngildan kuyadigan odam yo'qligini yaxshi biladi. B) Azimboy shunday zulm o'tkazdiki, oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi. Azimboy xalqning sabr kosasini to'ldiradigan zulm o'tkazdi. C) Sinf rahbarimiz ishonardiki, bizning guruh musobaqalarda g'olib chiqadi. Sinf rahbarimiz bizning guruhimizning musobaqalarda g'olib chiqishiga ishonadilar. D) U shunday yalinib gapirdiki, ra'yini qaytarishning sira iloji qolmagan edi. U yalinib gapirdi, shuning uchun ra'yini qaytarishning sira iloji qolmadi.

2. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Og'ir eshik unsiz ochildi-da, qop-qorong'i zalga nur yopirilib kirdi. B) Keyin bir lahza ko'zlarini yumdi-da, yuziga kaftini bosdi. C) Zuhra oynavand eshikni ochdi-da, ichkariga kirib ketdi. D) U g'azab bilan baqirdi-da, mashinasini keskin burdi.

3. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Lolalar uchun oftob yaxshidir, Bolalar uchun odob yaxshidir. B) Ko'm-ko'k tog'li yaylovlarda o'tov oqarib, yer-u ko'kni podalarning shovqin-suroni tutdi. C) O'ziga berilgan aqlsiz tentak bo'lsa, o'zini bezagan xushro'y satangdir. D) Chor atrofda esardi yellar, Va bog'larda qushlar chiyillar.

4. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

A) Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho'rva Kulala ikkovimizga zo'rlik qildi. B) Sen berahm bo'lsang ham, ammo Men dushmanlik qilmasman aslo. C) Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi. D) Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning ko'ziga xunuk ko'rinadi.

5. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar o'rtasida qanday munosabat ifodalanadi?

A) payt munosabati B) Gap mazmuniga ko'ra turli munosabat ifodalanishi mumkin. C) zidlik munosabati D) sabab yoki natija munosabati

6. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

A) Ko'z yoshi yo ko'ngildagi g'am-g'ussaning damini kesish, yo berahmning rahmini keltirish uchun to'kiladi. B) Uyatsizlik hamma narsa uchun dog', hayo hamma narsa uchun ziynatdir. C) Qorong'i kechada otilgan mushak ham go'zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go'zal. D) Dam jahlim chiqadi, dam kulgim keladi.

7. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

A) Adabiyotga o'g'ri mushukka o'xshab tuynukdan oshib tushadiganlar ham bo'ladi. B) Nima uchun ko'cha harakat qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi? C) Sen berahm bo'lsang ham, ammo Men dushmanlik qilmasman aslo. D) Taqdirimiz birdir, go'zalim Gar o'rtada daryo bo'lsa ham.

8. Voqea-hodisalarning o'zaro zidlanish mazmunini ifodalagan bog'langan qo'shma gapni toping.

A) Bu odam to'nkarilib qolgan qo'ng'izga o'xshaydi, o'nqlab qo'yadiganlarning qo'lini sasitadi. B) Adabiyot atomdan kuchli, lekin kuchini o'tin yorishga sarflash kerak emas. C) O'quvchi asarimizni qiziqib, shavq bilan o'qimas ekan, uning g'oyasini obrazlar orqali qabul qilmas ekan, maqsadimiz qog'ozda qolaveradi. D) Ba'zi so'zlarda sehr bo'ladi, ba'zi she'rlarda hikmat bo'ladi.

9. Quyidagi gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang. Ishim to'g'rilanib ketdi ham yerim o'zimga qoldi.

A) bog'langan qo'shma gap B) bog'lovchisiz qo'shma gap C) ergashgan qo'shma gap D) uyushiq bo'lakli sodda yoyiq gap

10. Ushbu birliklardan qaysi biri qo'shma gapning teng huquqli qismlarini bog'lashda ishtirok etadi?

- A) -u, -yu, -da B) va, hamda, ammo, lekin C) chunki, shuning uchun D) A, B

11. Nuri qoh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.(O.) Ushbu gapning turini toping.

- A) bog'langan qo'shma gap B) zidlov munosabatli C) biriktiruv munosabatli D) ayiruv munosabatli

12. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda faqat takror holda qo'llanuvchi bog'lovchilar berilgan qatorni toping.

- A) goh...goh, ba'zan...ba'zan, yo...yo, dam...dam B) goh...goh, ba'zan... ba'zan, dam...dam C) goh...goh, dam...dam, yoki...yoki D) goh...goh, ba'zan...ba'zan

13. Eshik sekin-sekin ochildi-yu, Arslonbek Qalandarovning ozg'in yuzi ko'rindi. Ushbu misol bog'langan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap B) zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap C) ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap D) inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap

14. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Quyosh yerga nurini har qancha sochsa ham, u yerdan buning evaziga hech narsa talab qilmaydi. B) Tantanali kechaning badiiy qismida konsert berildi ham hujjatli film namoyish qilindi. C) Suv keldi - n-r keldi. D) Bahaybat fil xartumini suvga solishi bilan, suvdagi to'lin oy birdan qalqiy boshladi.

15. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping.

- A) Ko'nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladay har yon yugurdim. B) Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin. C) Agar har bir kishi bir donadan ko'chat o'tqazsa, diyorimiz bog'-u bo'stonga aylanadi. D) Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg'u unutilmaydi.

2-VARIANT

1. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapni belgilang.

- A) Narsalarga qiziqishing yo'qolsa, xotirangdan ham ayrilasan. B) Bema'ni fikrlar har kimda ham bo'ladi, faqat aqlli kishigina uni ishlatmaydi. C) Ba'zan sho'x musiqa yangraydi, ba'zan zo'r qahqaha olamni buzadi. D) Go'zallik kishi uchun katta baxt, ammo mehnatsevarlik bebaho ziynatdir.

2. Sobir anhor bilan hovuz o'rtasidagi supaga joy qildirib berdi-da, o'zi qayoqqadir ketdi. Ushbu qo'shma gapning turi...

- A) ergashgan qo'shma gap B) sodda gap C) ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap D) biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap

3. Qaysi qatordagi gapda -u, -yu yuklamasi zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan?

- A) Siz ham "ish, ish" deb, umringizni san'atga baxshida qilganingizda nima bo'ldingiz-u, Nigora nima bo'ldi? B) Qiziq, odamning umri shuncha qisqa-yu, tipirchilashi olamni tutadi. C) Havoni quyuq tuman bosdi-yu, hech narsa ko'rinmadi. D) Kun kelar-u, sendan meni Begona qilar bu she'r.

4. Bog'langan qo'shma gapni toping.

- A) Mashrab shuni yaxshi biladiki, o'rtog'i uni aldamaydi. B) Yo yerning kuchi yo'q, yo urug'i yaxshi emas. C) Kim ichkilikdan madad istasa, go'r atrofida bo'ladi. D) Bu uyda na Ashirdan, na Soatdan, hech kimdan darak yo'q.

5. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap qatorini toping.

- A) Mahkam salomlashib ketmoqchi bo'ldi, biroq Mirsaid to'xtatdi. B) Masofa yiroq - k-ngil yaqin. C) Dunyoda biz bormiz - tinchlik buzilmas. D) Havo sovudi hamda yerlar muzladi.

6. Yomg'ir tindi-yu, shamol to'xtamadi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

A) biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap B) ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap
C) zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gap D) to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap

7. Rustam supaqa joy qildirib berdi-da, o‘zi qayoqqadir ketdi. Ushbu qo‘shma gapning qismlari o‘zaro qaysi vosita yordamida bog‘langan?

A) biriktiruv bog‘lovchisi yordamida B) faqat ohang yordamida C) yuklama yordamida D) zidlov bog‘lovchisi yordamida

8. Bog‘langan qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Katta anhor labiga o‘tiramiz-da, nonni burdalaymiz va suvga tashlaymiz. B) Ko‘kda oq bulut karvonlari yalqov suzsa-da, quyosh hashamat bilan chaq nab ko‘tariladi. C) Odamlar uzoq umr xohlashadi-yu, ammo o‘zlari uni ehtiyot qilishmaydi. D) Dam otlarga, dam daraxt boshidagi qushlarga qarab boraman.

9. Ayiruv munosabati ifodalangan bog‘langan qo‘shma gapni toping

A) Aka-singil ko‘chadagi harakatni goh eshikka chiqib, goh uy derazasidan kuzatishadi. B) Boyagi izg‘irin pasaygan, lekin kun sovuq edi. C) Bektimir dam to‘xtab, dam xayol surib turgan generalga duch keldi. D) Yo sen ketasan, yo u ketadi.

10. Zidlov munosabati ifodalangan bog‘langan qo‘shma gapni toping

A) Na hamdard kishisi bor, na ovuntiradigan mashg‘uloti. B) Kuz tushdi, tog‘ cho‘qqilarini qor bosdi. C) Uydagilar xursand edi, ammo bu xursandchilik unga tatimadi. D) Burgut yalqovgina, lekin viqor bilan qanotlarini yoyib uchib ketdi.

11. Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Uyda shunday xizmat qilib, oyimni, dadamni xursand qilishni ko‘z o‘ngimga keltirdim-u, yuragim orziqib ketdi. B) Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugurdi-yu, ko‘m-ko‘m barglar mavj ura boshladi. C) Unda na hayo bor, na ibo. D) A va B javoblar.

12. Inkor munosabati ifodalangan bog‘langan qo‘shma gapni toping.

A) Uning taklifini na majlis ahli, na rais ma‘qulladi. B) Afsuski, bu gapga qoyil qoladigan odam atrofda yo‘q edi. C) Na yomg‘ir yog‘adi, na havo ochilib ketadi. D) Ikki tirsagim zarang yerga qattiq urildi, lekin og‘riq sezmadim.

13. Quyidagi hukmlardan qaysi biri noto‘g‘ri?

A) Zidlash ma‘nosi va, ham bog‘lovchilari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda ifodalanishi mumkin. B) Zidlash ma‘nosi zidlov bog‘lovchilari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda ifodalanishi mumkin. C) -u,—yu, -da yuklamalari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda zidlash ma‘nosi ifodalanishi mumkin. D) Zidlash ma‘nosi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ifodalanishi mumkin.

14. Bog‘langan qo‘shma gapni toping.

A) So‘kinish odati kuchaygan sari beixtiyor yomon xatti-harakatlarga moyillik ham kuchaya boradi. B) Xushmuomalalikka haq to‘lanmasa ham, u ko‘p naf keltiradi. C) Hamma o‘z xotirasidan noliydi-yu, hech kim o‘z idrokidan nolimaydi. D) B, C

15. Qaysi qo‘shma gap voqea-hodisalarning galma-gal bo‘lishini ifodalaydi?


A) Goh unisi yo‘lini to‘sadi, goh bunisi gapga tutadi. B) O‘ktam tolga suyanib, dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi. C) Dam qor yog‘adi, dam yomg‘ir. D) A, C.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“ONA TILI VA ADABIYOTI”
FANIDAN**

**TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH
VA AZORAT QILISH HAMDA BAHOLASHNING REYTING
MEZONI**

**(5111700-Boshlang'ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi,
2-kurs talabalari uchun)**



Namangan–2017-yil

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo'llanmalardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- o'zlari mustaqil izlab topgan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- badiiy adabiyotlardan ona tili bo'yicha muayyan mavzularga doir misollar ko'chirish;
- chuqur o'rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda test topshiriqlarini tayyorlash ;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda lug'atlar tuzish.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Mashqlar bajaradilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan mashqlarni, topshiriqlarni bajaradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi qam da mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baqolanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topi yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun qam mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash seminar mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la

ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

“Ona tili va adabiyoti” fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari:

1. Talaba mustaqil ishining maqsadi-o'qituvchining rahbarligi ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdir.

2. Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirishga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzaralaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini belgilash;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari:

1. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Amaliy va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- maket, modul, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash.

Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texniklarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

Talabalar mustaqil ishining mazmuni va hajmi.
Ma'ruza mashg'ulotlari uchun mustaqil ish mavzulari

№	Ma'ruza mashg'ulotlari uchun mustaqil ish mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi
3-semestr				
1	Son, uning ma'no turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1-hafta	4
2	Olmosh, uning turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	2-hafta	4
3	Fe'l, uning grammatik xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	2-hafta	4
Gapning ajratilgan bo'laklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan bo'laklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar.

Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot; undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgilarining ishlatilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Bir bosh bo'lakli gaplar.

Bir bosh bo'lakli gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar). Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan - shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap - atov (yoki nominativ) gaplar va infinitiv gaplar ekanligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liq va to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning tuzilish va qo'llanish xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi

Ma'ruza mavzulari va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti.

3-semestr

№	Ma'ruzalarning mavzulari	Soati
1	Son. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari.	2
2	Sonning ma'no turlari. Sonning tuzilish jihatdan turlari.	2
3	Olmosh. Olmoshning grammatik ma'nosi.	2
4	Olmoshlarning ma'no turlari. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari.	2
5	Fe'l. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlari.	2
6	Fe'l mayllari.	2
7	Fe'l zamonlari.	2
8	Fe'lning vazifadosh shakllari.	2
9	Fe'lning yasalishi. Fe'lning tuzilish jihatdan turlari.	2
10	Ravish. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari.	2
11	Ravishlarning ma'no turlari.	2
12	Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari.	2
13	Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchilar.	2
14	Bog'lovchilar.	2
15	Yuklamalar.	2
16	Alohida olingan so'z turkumlari. Modal so'zlar.	2
17	Undov va taqlid so'zlar	2
	Jami	34

4-semestr

№	Ma'ruzalarning mavzulari	Soati
1	Sintaksis.	2
2	So'z birikmasi.	4
3	Gap.	2
4	Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari.	2
5	Gap bo'laklari. Ega.	2
6	Kesim	2
7	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. To'ldiruvchi va uning	2

	ifodalanishi.	
8	Aniqlovchi va uning ifodalanishi.	2
9	Hol va uning ifodalanishi.	4
10	Gapning uyushiq bo'laklari.	2
11	Gapning ajratilgan bo'laklari.	2
12	Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar.	2
13	Bir bosh bo'lakli gaplar.	4
14	Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.	2
	Jami	34

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Son.

Son - so'z turkumi sifatida. Sonning turlarini aniqlash, bu turlarning qanday yasalganini izohlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Sonlarning turlanishi va numerativ so'zlar bilan qo'llanishi, juft va tarkibli sonlarning imlosi ustida mashqlar va testlar.

Son yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Olmosh.

Olmosh - so'z turkumi sifatida. Olmoshning ma'no turlarini aniqlash, har bir turning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

Olmoshning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi; juft va qo'shma olmoshlarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Olmosh yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Fe'l.

Fe'l - so'z turkumi sifatida. Bo'lishli va bo'lishsiz, o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Fe'l nisbat (daraja)lari, ularni hosil qiluvchi affikslarni aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'l mayllari: ijro, buyruq - istak, shart (yoki shart - istak) mayllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'l mayllari: ijro, buyruq - istak, shart (yoki shart - istak) mayllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'ning tuslanishi, tuslovchi affikslarning turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'ning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini aniqlash, bu shakllarni yasovchi affikslar, ularning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'ning yasalishi, uning tuzilish jihatdan turlari, qo'shma va juft fe'llarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Fe'l yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Ravish

Ravish va uning ma'no turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Ravishning yasalishi, darajalari yuzasidan; qo'shma va juft ravishlarning imlosi bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Ravish yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Mustaqil so'zlar (ot, sifat, son (olmosh, fe'l, ravish) yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

Mustaqil so'zlar, ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan kollokvium o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Bo g'lovchi, ko'makchi, yuklama.

Bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalarni aniqlash, ularning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Modal so'z, undov, taqlid so'z

Modal so'z, undov va taqlid so'zlar, ularning turlari ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

So'z turkumlarini aniqlash va ularni morfologik jihatdan to'liq tahlil qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Sintaksis.

So'zlarning teng va ergash bo g'lanishi (aloqasi), ergash bo g'lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

So'z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Gap.

Gap, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajratish; gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra o'zgartirishga oid mashqlar va testlar.

Yig'iq va yoyiq gaplarni, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Gapning bosh bo'laklari.

Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash); sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi. ularning ba'zan sonda mos kelmaslik hollari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishiga ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Ikkinchi darajali bo'laklar.

Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashqlar.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Gapning uyushiq bo'laklari.

Gapning uyushiq bo'laklarini, qanday bo'lak uyushganini aniqlash, uyushiq bo'laklarning shakllanishi, bo'g'lovchili, bo'g'lovchisiz birikkanini, umumlashtiruvchi birliklar qatnashgan holatlarni, tinish belgilarning ishlatilishini belgilash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Ajratilgan gap bo'laklari.

Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Gap bo'lagi sanalmaydigan birliklar.

Gap bo'lagi sanalmaydigan undalma, kirish so'z va kirish birikmalar hamda kiritma gaplarni aniqlash. Kirish so'z va kirish birikmalarining ma'nolarini aniqlash; undalma va kiritma gaplarning qo'llanish o'rni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar ishlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Bir bosh bo'lakli gap.

Bir bosh bo'lakli gap, uning turlari, bo'laklarga ajralmaydigan gap (so'z-gap), to'liq va to'liqsiz gaplarni aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Sodda gap va so'z birikmasi yuzasidan kollokviy o'tkazish.

Sodda va qo'shma gaplarni aniqlash, ularni farqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

Bo'laklarga ajralmaydigan gap(so'z gap), to'liq va to'liqsiz gaplarni aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, zanjir, munozara, nima uchun?

Adabiyotlar: A 1; A 2; Q 1; Q 2; Q 3; Q 4.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotning kalendar tematik rejasi

3-semestr

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soati
1	Son-so'z turkumi sifatida. Sonning turlarini aniqlash, bu turlarning qanday yasalganini izohlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
2	Sonlarning turlanishi va numerativ so'zlar bilan qo'llanishi, juft va tarkibli sonlarning imlosi ustida mashqlar va testlar.	2
3	Son yuzasidan umumiy morfologik tahlil.	2
4	Olmosh-so'z turkumi sifatida. Olmoshning ma'no turlarini aniqlash, har bir turning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.	2
5	Olmoshning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi; juft va qo'shimcha olmoshlarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar	2

	va testlar.	
6	Olmosh yuzasidan umumiy morfologik tahlil.	2
7	Fe`l. Fe`l-so`z turkumi sifatida. Bo`lishli va bo`lishsiz, o`timli va o`timsiz fe`llarni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.	2
8	Fe`l nisbat (daraja)lari, ularni hosil qiluvchi affikslarni aniqlash bo`yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
9	Fe`l mayllari: ijro, buyruq-istak, shart (yoki shart-istak) mayllari, ularning o`ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
10	Fe`l zamonlari, ularning turlari, hosil bo`lishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Fe`lning tuslanishi, tuslovchi affikslarning turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
11	Fe`lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini aniqlash, bu shakllarni yasovchi affikslar, ularning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Fe`lning yasalishi, uning tuzilish jihatdan turlari, qo`shma va juft fe`llarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
12	Ravish. Ravish va uning ma`no turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
13	Ravishlarning yasalishi, darajalari yuzasidan; qo`shma va juft ravishlarning imlosi bo`yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	4
14	Ravish yuzasidan umumiy morfologik tahlil.	2
15	Bog`lovchilarni aniqlash, uning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.	6
16	Ko`makchilarni aniqlash, uning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.	
17	Yuklamalarni aniqlash, uning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.	
18	Modal so`z, uning turlari ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	6
19	Undov so`z, uning turlari ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	
20	Taqlid so`z, uning turlari ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	
	Jami	42

4-semestr

№	Amaliy mashg`ulotlar mavzulari	soati
1	Sintaksis. So`zlarning teng va ergash bog`lanishi (aloqasi), ergash bog`lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
2	So`z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so`zlarning o`zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	4
3	Gap, uning ifoda maqsadiga ko`ra turlarini aniqlash; gaplarning oxiriga qo`yiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko`ra o`zgartirishga oid mashqlar va testlar.	2

4	Yig'iq va yoyiq gaplarni, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
5	Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash).	2
6	Sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi, ularning ba'zan sonda mos kelmaslik holatlari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
7	Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashqlar.	2
8	To'ldiruvchi va aniqlovchi, ularning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
9	Aniqlovchi, uning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. aniqlovchi, ularning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	4
10	Hol, uning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	4
11	Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.	2
12	Gapning uyushiq bo'laklari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar o'tkazish.	2
13	Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
14	Gap bo'lagi sanalmaydigan undalma, kirish so'z va kirish birikmalar hamda kiritma gaplarni aniqlash, mashqlar va testlar ustida ishlash.	2
15	Bir bosh bo'lakli gap, uning turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	4
16	Bo'laklarga ajralmaydigan gap (so'z-gap), to'liq va to'liqsiz gaplarni aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.	2
17	Sodda gap va so'z birikmasi yuzasidan kollokvium o'tkazish.	2
	Jami	42

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo'llanmalardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- o'zlari mustaqil izlab topgan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- badiiy adabiyotlardan ona tili bo'yicha muayyan mavzularga doir misollar ko'chirish;
- chuqur o'rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda test topshiriqlarini tayyorlash ;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda lug'atlar tuzish.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Mashqlar bajaradilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan mashqlarni, topshiriqlarni bajaradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi qam da mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baqolanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topi yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun qam mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash seminar mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

“Ona tili va adabiyoti” fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari:

1. Talaba mustaqil ishining maqsadi-o'qituvchining rahbarligi ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdir.

2. Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirishga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzaralaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini belgilash;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari:

1. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish;

- berilgan mavzu bo`yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Amaliy va amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- maket, modul, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma`ruza tezislarni tayyorlash.

Shuningdek, darslik va o`quv qo`llanmalarining (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o`rganish. Tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruza qismlarini o`zlashtirish. O`qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganish;
- tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruzalar qismini o`zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha fanlar bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texniklarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o`rganish;
- talabaning o`quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq bo`lgan fanlar bo`limlari va mavzularni chuqur o`rganish;
- faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalaniladigan o`quv mashg`ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta`lim.

Talabalar mustaqil ishining mazmuni va hajmi.
Ma`ruza mashg`ulotlari uchun mustaqil ish mavzulari

№	Ma`ruza mashg`ulotlari uchun mustaqil ish mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi
3-semestr				
1	Son, uning ma`no turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1-hafta	4
2	Olmosh, uning turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual	2-hafta	4

		topshiriqlarni bajarish.		
3	Fe'l, uning grammatik xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	2-hafta	4
4	Fe'l nisbatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	3-hafta	4
5	Fe'lning vazifadosh shakllari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	4-hafta	4
6	Fe'l mayllari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	4-hafta	4
7	Fe'llarda shaxs-son kategoriyasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	5-hafta	2
8	Fe'l zamonlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	6-hafta	6
9	Ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'l.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	6-hafta	2
10	Fe'llarning yasalishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	7-hafta	2
11	Ravish, uning ma'no turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish.	7-hafta	6

		Individual topshiriqlarni bajarish.		
12	Yordamchi soʻzlar, ularning turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	8-hafta	6
13	Modal, undov va taqlid soʻzlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	9-hafta	6
	Jami			54

4-semestr

1	Sintaksis. Soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1-hafta	10
2	Gap, uning xususiyatlari. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	2-hafta	8
3	Bosh boʻlaklar. Ega va kesim, ularning ifodalanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	2-hafta	6
4	Ikkinchi darajali boʻlaklar, turlari, ifodalanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	3-hafta	10
5	Gapning uyushiq boʻlaklari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	4-hafta	4
6	Gapning ajratilgan boʻlaklari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual	4-hafta	4

		topshiriqlarni bajarish.		
7	Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	5-hafta	4
8	Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	6-hafta	10
	Jami			56

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha ta'lim berish jarayonida o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan, shu paytgacha tajribali pedagoglar tomonidan to'plangan ilg'or metod va usullardan, shuningdek, texnika taraqqiyotining imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanish tavsiya etiladi.

“Ona tili va adabiyoti” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezon.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Joriy nazorat (JN)-talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va bahoalash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish, mashqlar bajarish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat (ON)-semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat (YN)- semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-40 ball va ON-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100	Xulosa qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil fikrlaydi, amalda qo'llay oladi, moshiyatini tushunadi, yorqin aytib beradi, tassavurga ega.
71-85	Mustaqil fikrlaydi, amalda qillaydi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
55-70	Mohiyatini tushunadi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
0-54	Aniq tassavurga ega emas, bilmaydi, aytib bera olmaydi.

* Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

* Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

*Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $100 = \frac{V \cdot X}{O}$ R. Bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

*Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

*Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

* Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

*ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

* JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun,

navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

*Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

*Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

*Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

*Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi. Yozma ish, test natijalari bo'yicha	30	15	15
	Jami ON ballari	30	15	15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati.	30	15	15
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10		10
	Jami JN ballari	40	15	15

Talabalar YaN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o’tkaziladi.

№	Ko’rsatkichlar	YN ballari	
		Maks	O’tish bali
	Fan bo’yicha yakuniy yozma ish nazorati.	30	17
Jami YN ballari		30	17

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari.

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko’p variantli usulda o’tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo’yicha tayanch so’z va iboralar asosida tuzilgan bo’lib, fanning barcha mavzularini o’z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichi 0-10 ball oralig’ida baholanadi.

Yozma sinov bo’yicha umumiy o’zlashtirish ko’rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo’yilgan o’zlashtirish ballari qo’shiladi va yig’indi talabaning yakuniy nazorat bo’yicha o’zlashtirish bali hisoblanadi.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo’yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro’yxati.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o’quv qo’llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo’shimcha adabiyotlar ro’yxati

Rahbariyat adabiyotlari:

1. I.A.Karimov. Barkomol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008

Asosiy adabiyotlar:

1.M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili. - Toshkent, 2007-yil. -300 bet.

2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. Toshkent : TDPU, 2009-yil. -240 bet.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005.

2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006.

3.R.Yunusov. O‘zbek tilidan praktikum. 1-qism. – T.: TDPU, 2006.

4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

5. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010.

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz

3. www.Ziyonet.uz

4. www.edu.uz

5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

Namangan davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi, 2-kurs
talabalari uchun "Ona tili va bolalar adabiyoti" fanidan 3-semestr uchun
yakuniy nazorat savollari:
Son-so'z turkumi:

1. Qanday so'zlarga son deyiladi?
2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo'shimchalarni olishi mumkin?
3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so'zlarga bojlab 5 ta misol keltiring.
4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
5. Nutqimizda tez-tez qo'llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang.
6. Eskirgan sonlarga misol keltiring.
7. Butun va kasr sonlarning o'zaro farqini tushuntiring.
8. Kasr sonning turlari haqida gapiring.
9. Aralash sonlar haqida gapiring.
10. Miqdor sonlar haqida gapiring.
11. Hisob so'zlarining ma'no guruhlari haqida gapiring.
12. "Bir" so'zining qanday ma'nolari bor?
13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring.
14. Chama sonlar qanday hosil qilinadi?
15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi?
16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring.
18. Otlashgan sonlar qanday qo'shimchalarni oladi?
19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring.
20. "Beshtacha kitob" birikmasidagi sonni yoddan to'liq tahlil qilib bering.
21. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan sonlar haqida gapiring.
22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo'lgan sonlar haqida gapiring.

Olmosh-so'z turkumi:

1. Olmosh deb qanday so'zlarga aytiladi?
2. Olmoshlarning grammatik xususiyatlarini sanab ko'rsating.
3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
4. O'zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ko'rsatish olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
6. So'roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
8. Bo'lishsizlik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
9. Gumon olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
10. Olmoshlar bilan bojliq tovush o'zgarishlari haqida gapiring.
11. Qaysi turkumga oid so'zlar olmoshlarga ko'chadi?
12. Olmoshlarning tuzilish turlari haqida gapiring.

13. Turlanadigan olmoshlar haqida gapiring.
14. Turlanmaydigan olmoshlarga misollar keltiring.
15. Omonim xarakterdagi olmoshlar haqida gapiring.
16. O‘zaro sinonim bo‘la oladigan olmoshlar haqida gapiring.
17. **–lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda kuchaytirish ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
18. **–lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda kinoya ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
19. **–lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda hurmat ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
20. Qaysi olmoshlar daraja ko‘rsatkichlarini olishi mumkin?

Fe‘l-so‘z turkumi:

1. Fe‘lning so‘roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo‘lishli fe‘llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Bo‘lishsiz fe‘llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
4. O‘timli fe‘llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
5. O‘timsiz fe‘llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
7. O‘zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
8. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
9. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
10. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
11. Maxsus qo‘shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe‘lga misol keltiring.
12. Birdan ortiq orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgan fe‘llarga misollar keltiring.
13. Qaysi nisbatdagi fe‘llardan orttirma nisbat hosil qilib bo‘lmaydi?
14. Orttirma nisbatdagi fe‘llardan qaysi nisbatdagi fe‘llarni hosil qilish mumkin?
15. Birdan ortiq nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgan fe‘llarga 4 ta misol ayting.
16. Tuslanish nima?
17. **–m, –ng, –k, –ngiz** qo‘shimchalari qanday shakldagi fe‘llarga qo‘shiladi?
18. **–man, –san, –miz, –siz** kabi qo‘shim -chalar qanday shakldagi fe‘llarga qo‘shiladi?
19. **–gin, –ay, –ing(iz)** kabi qo‘shimchalar qanday shakldagi fe‘llarga qo‘shiladi?
20. O‘tgan zamon fe‘llarining turlari haqida gapiring.

Ravish-so‘z turkumi:

1. Ravishning ta‘rifi va so‘roqlari haqida gapiring.
2. Ravishlar qanday so‘zlarga bo‘jlanib keladi? Misollar keltiring.
3. Ravishlarning daraja ko‘rsatish xususiyatlari haqida gapiring.
4. Holat ravishlari haqida gapiring.
5. Payt ravishlari haqida gapiring.
6. O‘rin ravishlari haqida gapiring.
7. Sabab ravishlari haqida gapiring.
8. Maqsad ravishlari haqida gapiring.
9. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring.
10. Daraja-miqdor ravishlari qanday turlarga bo‘linadi?
11. Ravishlar qo‘shimchalar yordamida qanday so‘z turkumlaridan yasaladi?
12. Qo‘shma ravishlar qanday yasaladi?
13. Qo‘shma ravishlar qaytarzda yoziladi?
14. Juft ravishlar qanday yasaladi?
15. Takroriy ravishlar qanday yasaladi?
16. O‘rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan so‘zlar haqida gapiring.
17. Qanday so‘zlar ravishga ko‘chadi?
18. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring.
19. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring.

20. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhiga kiruvchi soʻz haqida gapiring.
21. Sifatga boʻylanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring.
22. Boshqa turkum soʻzlari ravishga aylan-ganda qanday qoʻshimchalarni olgan boʻladi?

Yordamchi soʻz turkumlari:

1. Koʻmakchi taʼrifini ayting va misollar keltiring.
2. Koʻmakchi qanday gap boʻlagi boʻlib keladi?
3. Sof koʻmakchilar haqida gapiring.
4. Koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻzlar haqida gapiring.
5. Koʻmakchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
7. Qaratqich kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
8. Joʻnalish kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
9. Chiqish kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
10. Koʻmakchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
11. Bojlovchining taʼrifini ayting.
12. Bojlovchilar qoʻllanishiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
13. Teng bojlovchilar taʼrifini ayting.
14. Biriktiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
15. Zidlov bojlovchilar taʼrifini ayting.
16. Ayiruv bojlovchilar taʼrifini ayting.
17. Ergashtiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
18. Aniqlov bojlovchilari haqida soʻzlang.
19. Sabab bojlovchilari haqida gapiring.
20. Shart va oʻxshatish bojlovchilari haqida gapiring.
21. Koʻmakchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
22. Bojlovchining taʼrifini ayting.
23. Bojlovchilar qoʻllanishiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
24. Teng bojlovchilar taʼrifini ayting.
25. Biriktiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
26. Zidlov bojlovchilar taʼrifini ayting.
27. Ayiruv bojlovchilar taʼrifini ayting.
28. Ergashtiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
29. Aniqlov bojlovchilari haqida soʻzlang.
30. Sabab bojlovchilari haqida gapiring.
31. Shart va oʻxshatish bojlovchilari haqida gapiring.

Alohida olingan soʻzlar turkumi:

1. Modal soʻzlarning taʼrifini ayting.
2. Modal soʻzlarning maʼno jihatidan turlarini ayting.
3. Maʼlum bir guruhga kirmagan modal soʻzlarni sanab koʻrsating.
4. Mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqan modal soʻzlar haqida gapiring.
5. Modal soʻzlar kelib chiqishiga koʻra yana qanday boʻlishi mumkin?
6. Undov soʻzlarning taʼrifini ayting.

7. Undov soʻzlar qanday koʻrinishlarda qoʻllanishi mumkin?
8. His-hayajon undovlari haqida gapiring.
9. Mustaqil soʻzlardan his-hayajon undovlariga oʻtgan soʻzlarga misollar keltiring.
10. Haydash-chaqirish undovlari haqida gapiring.
11. Haydash-chaqirish undovlari qanday soʻzlar bilan qoʻllanadi?
12. Taqlid soʻzlarning taʼrifini ayting.
13. Tovushga taqlid soʻzlar haqida soʻzlang.
14. Holatga taqlid soʻzlar haqida soʻzlang.
15. Taqlid soʻzlar qanday koʻrinishlarda qoʻllanadi?
16. Taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlarga qaysi jihatlari bilan oʻxshaydi?
17. Taqlid soʻzlarning otlashishi haqida gapiring.
18. Eskirgan modal soʻzlarga misollar keltiring.
19. “Oʻz-oʻzidan” modal soʻzi qaysi mustaqil soʻz turkumlariga omonim boʻla oladi?
20. Ham tovushga, ham holatga taqlid bildiradigan soʻzlarga misollar keltiring.

TESTLAR:

1-variant:

1. – ov, -ala qo`shimchalari qo`shilsa, qaysi sonlar o`zagidagi tovush tushadi?
A) bir, ikki; B) uch, to`rt; *C) ikki, yetti; D) besh, olti;
2. Afsus, achinish ma`nosini ifodalagan modal so`zlar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
A) inchunin, modomiki, ehtimol, albatta;
*B) baxtga qarshi, attang, afsuski, taassufki;
C) baxtimizga, xayriyat, shukr, yaxshi;
D) mayli, xo`p, yo`q, essiz, attang;
3. Asl ko`makchilar qatorini toping.
A) bilan, yarasha, uchun;
B) orqali, sababli, tufayli;
C) yarasha, qaraganda, bo`ylab;
*D) bilan, uchun, kabi, singari ;
4. Bahor keldi seni so`roqlab Ushbu gapdagi fe`lning sintaktik vazifasi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
A) ega;
*B) kesim;
C) to`ldiruvchi;
D) aniqllovchi;
5. Betma-bet, ochiqdan-ochiq, ko`pincha so`zlar qaysi turkumga xos?
A) Ot;
B) sifat;
*C) ravish;
D) sifat va ravish;
6. So`zlarni turkumlarga ajratishda nimalarga e`tibor qaratiladi?
A) lug`aviy ma`nolari hisobga olinadi;
B) lug`aviy ma`nolari va morfologik xususiyatlari hisobga olinadi;
C) sintaktik vazifalari hisobga olinadi;
*D) B va S javoblar to`g`ri;

7. Gap bo'lagi vazifasida kela oladigan so'z turkumlarini aniqlang.

A) ot, sifat, ko'makchi, ravish, fe'l;

B) bog'lovchi, yuklama, undov va taqlid so'zlar;

*D) fe'l, ravish, son, olmosh;

8. Ot-so'z turkumiga xos grammatik ko'rsatkichlar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) turlanish, daraja, nisbat, tuslanish;

*B) egalik, turlanish, aniq va mavhum, atogli va turdosh;

C) turlanish, tuslanish, sanoq, daraja-miqdor, tartib;

D) yakka va jamlovchi, atogli va turdosh, turlanish, mayl;

9. Faqat mavhum otlar berilgan qatorni aniqlang.

A) bino, osmon, yer, zilzila;

B) bayram, un, suv;

C) go'zallik, muhabbat, mashina, shodlik, to'y;

*D) sevgi, quvonch, baxt, ozodlik;

10. Jamlovchi otlar berilgan qatorni toping.

A) daftar, daraxt, uy;

*B) guruh, aholi, armiya;

C) bola, qalam, kitob;

D) gul, maysa, deraza;

11. Juft otlar qanday so'zlardan tuzilishi mumkin?

A) ma'nolari yaqin so'zlardan;

B) sinonim va antonim so'zlardan;

*C) A va B javoblar to'g'ri;

D) ko'p ma'noli so'zlardan;

12. Qisqartma otlar qanday tuziladi?

A) har bir so'zning bosh harflaridan;

B) birinchi so'zning bosh qismi, keyingi so'zlarning bosh harflaridan;

C) har bir so'zning bosh qismlaridan;

*D) A, B, S javoblar to'g'ri;

13. Kichraytirish otlarini yasovchi qo'shimchalar qo'shilgan so'zlarni toping.

A) yangicha, eskicha;

B) novcha, o'zbekcha;

* C) uycha, ko'zacha;

D) ko'cha, do'koncha;

14. Erkalash otlari berilgan qatorni toping.

A) Barnoxon, jurnalxon;

B) Erkinjon, ayiqjon;

C) qizgina, shugina;

* D) bolaginam, onajonim;

15. Faqat narsa-buyumning xil-xususiyatini bildirgan sifatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) mukammal, xushfe'l, to'g'ri, qing'ir;

B) katta, yirik, buyuk, ulkan, gigant;

C) suluv, chiroyli, go'zal, barno, yosh;

* D) kamtar, saxiy, xushxulq, oliyjanob;

16. Sifat turkumiga oid so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

* A) tarqoq, tiniq, siniq;

B) tuzoq, taroq, qo'rqoq, siniq;

C) kurak, tuvak, elak, suyak;

D) bemavrid, beqadr, pillakor;

17. Sadoqatli, mardlarcha, yig'loqi so'zlari qaysi turkumga xos?

A) sifat;

B) sifat, ot;

C) ravish, ot;

* D) sifat, ravish;

18. Qaysi olmosh turlanganda, egalik qo'shimchasining qallanishi shart?

* A) o'zlik olmoshi;

B) ko'rsatish olmoshi;

C) gumon olmoshi;

D) belgilash olshmoshi;

19. Qaysi olmosh II shaxs ma'nosini ifodalagan?

A) Bu cho'llarni ular o'zlari obod qilishgan.

*B) O'zlarini soya-salqinga olibdilar-da.

C) Faqat o'zim balogardoning bo'lay, onajon!

D) Faqir o'sha kunlar Hirotda edim.

20. Qaysi qatordagi so'z olmosh turkumiga mansub emas?

A) allakim;

B) allanima;

C) allanarsa;

*D) allamahol;

2-variant:

1. Qaysi xususiyat barcha so'z turkumlariga xos?

A) lug'aviy ma'noga egalik;

*B) grammatik ma'noga egalik;

C) sintaktik vazifa bajarish;

D) ham lug'aviy, ham grammatik ma'noga egalik, sintaktik vazifa bajarish;

2. Qaysi so'zlar lug'aviy ma'noga ega bo'ladi?

*A) faqat mustaqil so'zlar;

B) mustaqil va yordamchi so'zlar;

C) mustaqil so'zlar, undov va taqlid so'zlar;

D) tildagi barcha so'zlar;

3. Qaysi xususiyat barcha so'z turkumlariga xos emas?

*A) Lug'aviy ma'noga egalik;

B) grammatik ma'noga egalik;

C) grammatik shaklga egalik;

D) grammatik vazifaga egalik;

4. Ko'plik qo'shimchasi chama, taxmin ma'nolarini ifodalagan gapni toping.

A) Olisdan ko`zga chalinayotgan gulxan shu`lalarini unga umid bag`ishladi.

B) Oyoqlarim zirqirab og`rir edi.

*C) Tunlari bemor ko`ziga uyqu ilinmas edi.

D) Yozda Toshkentlarni aylanib keldik.

5. Qaysi qatorda ko`plik ma`nosi qo`shimchasiz ifodalangan?

A) Bir gala qush hovli yuzini tutgan edi.

B) Maydonga minglab odam to`plandi.

C) Gul keltirdim sizga bir quchoq.

*D) A, B, S javoblar to`g`ri;

6. Faqat birlikda qo`llanadigan otlar qatorini aniqlang.

A) jurnal, gazeta, suv;

*B) un, shakar, guruch;

C) dala, sut, kitob;

D) mashina, deraza, non;

7. Qaratqich kelishigi qaysi so`z turkumlarini bir-biriga bog`laydi?

A) ot bilan fe`lni bog`laydi;

*B) faqat ot bilan otni bog`laydi;

C) ot bilan olmoshni bog`laydi;

D) faqat ot bilan ravishni bog`laydi;

8. Qaysi kelishiklar belgisiz qo`llanishi mumkin?

A) tushum va o`rin-payt kelishiklari;

B) jo`nalish va chiqish kelishiklari;

*C) qaratqich va tushum kelishiklari;

D) bosh va qaratqich kelishiklari;

9. Turlanish bilan bog`liq irvush o`zgarishi bo`ladigan so`zlar qatorini ko`rsating.

A) maktab, ko`cha;

B) etak, bilak;

C) chiroq, bo`taloq;

*D) B va S javob to'g'ri;

10. *Marhum ot yasovchi qo'shimchalar qatorini ko'rsating.*

A) -k, -ak, -gi, -kich, -dor, -ma;

B) -do'z, -paz, -shunos, -kor;

*C) -lik, -chilik, -garchilik, -izm;

D) -kash, -dosh, -paz, -zor;

11. *ShPaxs otini yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.*

A) -gar, -kor, -k, -ak, -shunos, -paz;

*B) -chi, -kor, -brn, -gar, -do'z;

C) -xon, -gar, -paz, -do'z, -boz;

D) -shunos, -xon, -do'z, -gich, -vachcha;

12. *Fe'ldan yasalgan otlar qatorini aniqlang.*

A) kitobxon, yaxshilik, ozodlik;

*B) bostirma, suzma, chertki, bezak;

C) omonlik, to'g'rilik, go'zallik;

D) qalamkash, dardchil, ko'ngilchan;

13. *Sifatdan yasalgan otlar qaysi qaiorda berilgan?*

A) bebaho, chiroyli, ozoda, mehribon;

B) xumdon, kitobxon, qo'rqq, nomusli;

*C) go'zallik, ezgulik, yaxshilik;

D) chidamli, oriyatli, totli, uyatchan;

14. *Murakkab otlarning qaysi biri ikki xil so'z turkumidan tashkil topishi mumkin?*

A) qo'shma va juft otlar;

*B) faqat qo'shma otlar;

C) juft va takror otlar;

D) qo'shma, juft va takror otlar;

15. *Sifatlar asosan gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin?*

A) ega;

B) kesim;

C) to'ldiruvchi;

*D) aniqlovchi;

16. Qaysi qatorda ozaytirma sifatlar berilgan?

A) g'oyat nozik, juda baland, eng go'zal;

*B) nim pushti, och ko'k, sarg'imtir;

C) tip-tiniq, yum-yumaloq, sap-sariq;

D) ozaytirma sifat berilmagan;

17. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

A) -ma, -qoq, -gir, -g'oq, -g'in;

B) -q, -iq, -kir, -uq, -qur;

C) ba-, bo-, ser-, no-;

*D) A va B javoblar to'g'ri;

18. Qaysi atama songa xos emas?

*A) yasama;

B) qo'shma;

C) juft, tartib;

D) sanoq;

19. Sonlar gapda ko'proq qaysi gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin?

*A) aniqlovchi;

B) kesim;

C) ega;

D) faqat hol;

20. Qaysi olmoshlar jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi bilan turlanganda -n torushi qo'shiladi?

*A) ko'rsatish;

B) o'zlik;

C) belgilash;

D) kishilik;

3-variant:

1. Mustaqil va yordamchi soʻzlarni toʻgʻri koʻrsatilgan javobni belgilang.

A) Mustaqil soʻzlar ham kugʻariy, ham grammatik maʼnoga, yordamchi soʻzlar esa faqat grammatik maʼnoga ega boʻladi;

B) mustaqil soʻzlar sintaktik vazifa bajara oladi, yordamchi soʻzlar esa bajara olmaydi;

C) mustaqil soʻzlar yordamchi soʻzlardan faqat grammatik shakli bilan farq qiladi;

*D) A va B javoblar toʻgʻri;

2. -lar qoʻshimchasi qaysi gapda narsaning turini ifodalamoqda?

A) Dalalar boʻm-boʻsh.

B) Sanʼat meni Toshkentlarga olib ketdi.

*C) Kislotalar, tuzlar ximiyaning anorganik qismida oʻrganiladi.

D) Anvoyi gullardan guldasta yasadik.

3. III shaxs birlikdagi egalik qoʻshimchasini olgan otlarni koʻrsating.

A) doʻstim, onam;

* B) otasi, akasi;

C) kitoblaringiz, yurti;

D) vatanning, yurti;

4. Qaysi qatordagi soʻzga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda, k tovushi gʻ tovushiga aylanmaydi?

A) oʻrtoq, bayram;

B) soʻroq, qaymoq;

*C) zavq, ishtiyoq;

D) barmoq, tirnoq;

5. Qaysi qatordagi soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda tovugʻ tushishi yuz beradi?

A) ko`rik, shahar;

B) mashina, maydon;

*C) burun, og`iz;

D) kitob, daftar;

6. nuqtalar o`rniga qaysi kelishik qo`shimchasini qo`yish mumkin?

A) Ona-bola nonushta qiylayotganlari... guzar taraf... Abdulla.... ovozi keldi.

A) o`rin-payt, chiqish, tushum;

*B) o`rin-payt, chiqish, qaratqich;

C) jo`nalish, o`rin-payt, qaratqich;

D) qaratqich, o`rin-payt, chiqish;

7. Qaysi so`z turkumlari turlanadi?

A) faqat ot;

B) ot va olmosh;

C) ot, olmosh, son, sifat;

*D) ot, olmosh va otlashgan so`zlar;

8. Qaysi gapda jo`nalish kelishigi o`rnida o`rin-payt kelishigi qo`llangan?

A) Bahodir ukasi bilan uyda qoldi.

*B) Hamma maktab oldida to`plandi.

C) Hayotda nimalar kechmaydi boshdan.

D) O`zingda yo`q, olamda yo`q.

9. Kelishik qo`shimchalarining vazifasi nimadan iborat?

*A) so`zlarni bir-biriga bog`laydi;

B) so`zlarga ma`no yuklaydi;

C) yangi so`z yasaydi;

D) so`z shaklini o`zgartiradi.

10. Kelishik qo`shimchalari vazifasiga ko`ra qanday qo`shimcha?

A) so`z yasovchi qo`shimcha;

*B) so`z o`zgartiruvchi qo`shimcha;

C) shakl yasovchi qo'shimcha;

D) tuslovchi qo'shimcha;

11. Sadoqatli, mardlarcha, yig'loqi so'zlari qaysi turkumga xos?

A) sifat;

B) sifat, ot;

C) sifat, ravish;

*D) faqat ravish;

12. Qaysi qatorda ozaytirma sifatlar berilgan?

A) g'oyat nozik, juda baland, eng go'zal;

*B) nim pushti, och ko'k, sarg'imtir;

C) jigqa ho'l, g'irt dangasa, hammadan kuchli;

D) ozaytirma sifat berilmagan;

13. Kuchaytirma sifat berilgan qatorni toping.

A) qoramtir, qizg'ish, sarg'ish;

*B) qop-qora, ko'm-ko'k, tim-qora;

C) nihoyatda go'zal, aqlliyoq;

D) nim pushti, och sariq, dum-dumaloq;

14. Savatdagi olmalar qip-qizil, juda shirin edi.

Ushbu gapdagi sifatlar darajasi va ularni hosil qilgan vositalarni aniqlang.

A) ozaytirma daraja, morfologik va leksik vosita;

*B) orttirma daraja, morfologik va leksik vosita;

C) ozaytirma daraja, fonetik va leksik vosita;

D) orttirma daraj, fonetik va leksik vosita;

15. Sonlarning ma'nosiga ko'ra turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar qanday nomalanadi?

A) so'z yasovchi qo'shimchalar;

*B) shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar;

C) so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar;

D) nisbat qo'shimchalari;

16. Qaysi qatordagi sonlarning yozilishida xato mavjud?

- A) 20-yillar adabiyotida A.Qodiriyning o`rni katta;
- *B) 1989yilning 21-oktabrida o`zbek tiliga «Davlat tili» maqomi berildi;
- C) «Qissasi Rabg`uziy» asari 72 bob;
- D) Biz mana shu yning 10-qavatida yashaymiz;

17. Kakligim bir sayradi, bir sayradi-yey..

Ushbu gapdagi bir so`zi qanday ma`noni ifodalagan?

- A) miqdorni;
- B) tartibni;
- C) ma`noni kuchaytirgan;
- *D) butunning ulushini;

18. Olmoshlar gapda qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?

- *A) ot turkumiga xos bo`lgan egalik yoki kelishik qo`shimchalarini qabul qilishi mumkin;
- B) sifatga xos daraja qo`shimchalarini olishi mumkin;
- C) songa xos -ta, -tacha, -larcha qo`shimchalarini olishi mumkin;
- D) A va B javoblar to`g`ri;

19. Bizning uyimiz to`rt xonali. Sizniki ham shunchami?

Ushbu gapdagi shunchami olmoshi qaysi so`z turkumi o`rnida qo`llanilgan?

- A) ot;
- B) sifat;
- *C) son;

D) ravish;

20. Kelajakni yaratuvchi sizlarsiz.

Ushbu gapdagi olmoshning sintaktik vazifasi qaysi qatorda to`g`ri berilgan?

- A) ega;
- *B) kesim;
- C) to`ldiruvchi;

D) aniqlovchi, hol;

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“ONA TILI VA ADABIYOTI”
FANIDAN**

**TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING
REYTING MEZONI**

**(5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi,
2-kurs talabalari uchun)**

Namangan–2017-yil

Semestrlar bo'yicha talaba bilimini nazorat qilish turlari:

Talabalarining bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting sistemasini 2009- yil 7- avgustdagi O'zbekiston Respublikasi OTV ning talabalar bilimini reyting asosida baholash to'g'risidagi № 276- buyrug'I asosidagi Nizomiga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi OTV ning 2010-yil 25- avgustdagi 333-sonli buyrug'i asosida 2010-yil 26- avgust № 1981-1-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i asosida olib borildi. Mazkur buyruq 2010-yil 5 -sentabrdan kuchga kirgan bo'lib, shu buyruq asosida ish olib borildi.

Muayyan fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan 30 bali yakuniy nazorat, qolgan 70 balini oraliq va joriy baholash uchun kafedra taklifi bilan fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassaslarida fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi ballni to'plagan talablar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestra yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballar yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestar tugagandan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida”gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 11-iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 10-iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Topshiriqqa muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-son “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2001-yil, 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar.

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali bahoashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslaganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o`zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtidav ma`lum qilish;

ye) talabalarning fanlar bo`yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta`minlash;

j) o`quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo`yicha talabalar bilimini baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi.

1. Nazorat turlari, uni o`tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta`lim muassasining (fakultet) o`quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamdja har bir fanning ishchi o`quv dasturida mashg`ulot turlari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

2. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma`lumotlar fan bo`yicha birinchi mashg`ulotda talabalarga e`lon qilinadi.

3. Talabalarning bilim saviyasi va o`zlashtirish darajasining Davlat ta`lim satandartlariga muvofiqligini ta`minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o`tkazish nazarda tutiladi:

a) joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo`yicha bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarida og`zaki so`rov, test o`tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish vash u kabi boshqa shakllarda o`tkazilishi mumkin;

b) Oraliq nazorat - semestr davomida o`quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o`z ichiga olgan) bo`limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko`nikma darajsini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni (bir semestrda ikki martadan ko`p o`tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og`zaki, test va hokazo) o`quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

v) yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo`yicha nazariy va amaliy ko`nikmalarni talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasini baholash. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o`tkaziladi.

Ta`lim yo`nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kenegashi qarori asosida ko`pi bilan 40 % fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og`zaki, test va hokazo) o`tkazilishi mumkin.

4. Oraliq nazorat o`tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o`rganib boriladi va uni o`tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o`tkaziladi.

5. Oliy ta`lim muassasi rahbarining buyrg`i bilan ichki nazorat va monitoring bo`limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazorat va monitoring bo`limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o`tkazish jarayoni davriy ravishda o`rganib boriladi va uni o`tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o`tkaziladi.

6. O`quv yili tugagandan keyin reyting natijalariga ko`ra talabalar keyingi kursga o`tkazish to`g`risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari.

1. Talabalarning bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har biri fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

2. Har bir fan bo`yicha talabaning semestr davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

a) yakuniy nazoratga – 30 ball;

b) joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

3. Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo`yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo`yicha o`zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

4. Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o`rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo`llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo`llay olish;
- mohiyatini tushunish;

- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

v) 55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo`lish.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-54 bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo`lmaslik;
- bilmaslik.

5. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo`yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e`lon qilinadi.

6. Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo`yicha tayan oliy ta`lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta`lim muassasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta`lim muassaslariga yetkaziladi.

7. Talabalarning o`quv fani bo`yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

8. Talabaning fan bo`yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R*(V*O')=100$$

Bu yerda V- fanga ajratilgan umumiy o`quv yuklamasi(soatlarda);

O'- fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi (ballarda).

9. Fan bo`yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to`plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo`yicha 55 va undan yuqori ballni to`plagan talaba fanni o`zlashtirgan hisoblanadi va ushbu fan bo`yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo`l qo`yiladi.

Oliy ta`lim muassasalarida fan bo`yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi ballni to`plagan talabalar ushbu fan bo`yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

10. Talabaning semestr davomida fan bo`yicha to`plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to`plagan ballari yig`indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o`tkazish muddati:

1. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar mavzusi rejasiga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o`tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning 2 haftasi mobaynida o`tkaziladi.

2. Talaba fan bo`yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo`yicha to`plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

3. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabalarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababali darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

4. Talabning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

5. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

6. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd etish va tahlil etish tartibi:

1. Talabaning fan bo'yicha baholash turlarida to'plangan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa talabaning mazkur Nizomning 10-bandiga muvofiq 100 ballik tizimdagi o'zlatishirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

2. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomasida qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

3. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

4. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballar yig'indisi orqali aniqlanadi.

5. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

6. Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'limlaridagi kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

7. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

2. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

Har bir semestrda talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

1. Joriy nazorat (amaliy, laboratoriya(tajriba), seminar va mustaqil ishlarni baholash orqali olib borildi).

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlarida amalga oshirilishi mumkin. Har 4 soatda 1 ta JB natijasi umumlashtiriladi.

2. Oraliq nazorat (Fanning ayrim bo'lim va qismlari o'rganilib bo'lingach o'tkazilgan nazoart turidir.)

Oraliq nazoratda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'limi yoki qismi bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng, talabaning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabaning muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. OB ma'ruza darslarida amalga oshirilishi mumkin. OB lar soni fanning umumiy soatlari hajmidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasi tomonidan aniqlanadi.

JB va OB turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium va shu kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

3. Yakuniy nazorat

Yakuniy nazoratda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Yakuniy nazorat semestr yakunida o'tkaziladi.

Muayyan fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: yakuniy baholashga 15 ball, qolgan 85 ball esa oliy ta'lim muassasi tomonidan kafedra taklifi asosida fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda joriy va oraliq baholashlarga taqsimlanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan ball har bir baholash turlaridan to'plangan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

Yakuniy nazorat turi yozma ish usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya, nazorat ishi va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Har bir semestr 100 ball asosida baholanadi.

Har bir semestr uchun oraliq nazorat va joriy nazoratlar soni belgilanadi.

Joriy nazorat quyidagi shaklda olib boriladi:

1. Mavzu bo'yicha savol-javoblar.
2. Mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan ishlash.
3. Darslik va qo'llanmalarni tahlil qilish.
4. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash.
5. Mavzular asosida mashqlar bajarish.

Oraliq nazorat test, savollarga yozma javob yozish usulida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat esa yozma ish usulida o'tkaziladi.

Talabalarining mustaqil ishlari joriy va oraliq nazorat davrida olib boriladi.

Nazoratning barcha turlari tasdiqlangan namunaviy va ishchi o'quv dasturlari asosida olib boriladi.

“Ona tili va adabiyoti” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Ona tili va adabiyoti” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Joriy nazorat (JN)-talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish, mashqlar bajarish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat (ON)-semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat (YN)- semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Ona tili va adabiyoti" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-40 ball va ON-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100	Xulosa qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil fikrlaydi, amalda qo'llay oladi, moshiyatini tushunadi, yorqin aytib beradi, tassavurga ega.
71-85	Mustaqil fikrlaydi, amalda qillaydi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
55-70	Mohiyatini tushunadi, aytib bera oladi, tassavurga ega.
0-54	Aniq tassavurga ega emas, bilmaydi, aytib bera olmaydi.

* Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

* Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

*Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $100 = V \cdot X \cdot O = R$. Bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

*Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

*Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

* Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

* ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

* JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

*Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

*Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

* Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

*Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi. Yozma ish, test natijalari bo'yicha	30	15	15
	Jami ON ballari	30	15	15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati.	30	15	15
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10		10

Jami JN ballari	40	15	15

1, 2-semestrlarda joriy nazorat uchun 42 soat ajratilgan bo`lib, ushbu soatlar bajarilishi davomida talaba 40 ball oladi. Bundan 10 bali mustaqil ish uchun ajratilgan. 30 bali esa talabaning dars davomida olishi lozim bo`lgan ballar bo`lib, ular quyidagicha taqsimlanadi:

0,8-1 = 55-70 %	17-21 = 55-70 %
1,1-1,2 = 71-85 %	22-25 = 71-85 %
1,3- 14 = 86-100 %	26-30 = 86-100%

Mustaqil ish 10 ball:

5,5-7 = 55-70%
7,1-8,5 = 71-85 %
8,6-10 = 86-100 %

Joriy nazorat bali jami 40 ball:

22-28 = 55-70 %
29-34 = 71-85 %
35-40 = 86-40 %

Oraliq nazoratlarni baholash mezoni:

Oraliq nazorat har bir semestrda ikki marta o`tkaziladi: 1-oraliq nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko`p variantli usulda o`tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo`yicha tayanch so`z va iboralar asosida tuzilgan bo`lib, fanning barcha mavzularini o`z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi 0-5 ball oralig`ida baholanadi.

Yozma sinov bo`yicha umumiy o`zlashtirish ko`rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo`yilgan o`zlashtirish ballari qo`shiladi va yig`indi talabaning orqaliq nazorat bo`yicha o`zlashtirish bali hisoblanadi.

- har bir yozma javobga 5 ball ajratiladi.
- agar savol mohiyati to`la ochilgan bo`lib, mavzu bo`yicha talabaning tanqidiy nuqtai nazari bayon qilingan bo`lsa - 4,3-5=5 ball
- savolning (masala) mohiyati to`la ochilgan, asosiy fikrlari to`g`ri bayon qilingan bo`lsa 3,6-4,2= 4 ball.
- berilgan savolda javoblar umumiy va kamchiliklar ko`proq bo`lsa 2,7-4,1 = 3 ball beriladi.

2-oraliq nazorat test asosida o`tkaziladi. Ushbu test ko`p variantli test savollari asosida tuzilgan bo`lib, har bir variant 30 tadan test savollaridan iborat bo`ladi hamda har bir to`g`ri javob uchun talaba 1 ball asosida baholanadi.

Jami oraliq nazorat 30 ball:

16,5-21=55-70 %;
21,3-25,5= 71-85 %;
26-30=86-100 %

Talabalar YaN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maks	O'tish bali
	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati.	30	17
Jami YaN ballari		30	17

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari.

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaniy yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazorat yozma ish usulida o'tkaziladi. Yakuniy nazoratda talaba tayanch tushunchalarga asoslangan 3 ta savolga yozma javob qaytarish asosida o'tkaziladi.

- har bir yozma javobga 10 ball ajratiladi.
- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lib, mavzu bo'yicha talabaniy tanqidiy nuqtai nafari bayon qilingan bo'lsa - 8,6-10 ball
- savolning (masala) mohiyati to'la ochilgan, asosiy fikrlari to'g'ri bayon qilingan bo'lsa 7,1-8,7 ball.
- berilgan savolda javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa 5,6-7 ball beriladi.

Maksimal ball – 100 b.

JN (joriy nazorat) – maksimal 40 b.

ON (oraliq nazorat) – maksimal 30 b.

YN (yakuniy nazorat) – maksimal 30 b.

Saralash ball – 55 b.

86-100 ball

71-85 ball

55-70 ball

Mustaqil ishni baholash mezonlari.

Talabaniy mustaqil ishi ishchi-o'quv dasturida ko'rsatilgan badiiy asar yoki matnni uslubiy jihatdan tahlili, konspekt qilish, kartochkalar, krossvordlar, rebuslar,

test banki, savolnomalar yoki ko'rgazmali qurollar, mashqlar banki tayyorlashdan iborat.

Talaba yuqorida nomlari ta'kidlab o'tilgan tarzdagi mustaqil ishlarni tayyorlaganda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosalar chiqarilgan, ijodiy fikrlari mavjud bo'lib, internet ma'lumotlardan unumli foydalanilgan bo'lsa 8,6-10 ball.

Mavzu mohiyati ochilgan, xulosalar kam, ijodiy fikrlari bo'lmasa 7,1-8,5 ball.

Mavzu umumiy tarzda yoritilgan, kamchiliklar bor bo'lsa 5,5-7 ball.

Mavzu mohiyati ochib berilmagan bo'lsa 0-4 ball beriladi.

J.N.	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball
	100 %	86 %	85 %	71 %	70 %	55 %	54 %	0 %
10 ball	10	8,6	8,5	7,1	7	5,5	5	0

Yakuniy nazorat mezon.

Yakuniy nazoratda talaba tayanch iboralarga asoslangan yozma ish topshiriqlarilariga javob yozadi. Tayanch iboralar 3 tadan iborat bo'lib, har biri uchun 10 balldan ajratiladi.

-Agar talaba tayanch iboraning mohiyatini to'la ochib berib, asosiy tushunchalarni ijodiy fikrlari bilan bayon qilgan bo'lsa 8,6-10 ball.

- tanyach ibora to'la ochib berilgan, tushunchalar to'g'ri bayon qilingan, xulosalar to'g'ri bo'lsa 7,1-8,5 ball.

- tanyach ibora mohiyati umumiy tarzda ochilgan, lekin kamchiliklari bor bo'lsa 5,5-7 ball.

- tayanch ibora mohiyatini to'liq ochib bera olinmagan va lekin kamchiliklari bor bo'lsa 0-4 ball tarzida ball belgilanadi.

Ya.N.	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball	Mak. ball	Minim. ball
	100 %	86 %	85 %	71 %	70 %	55 %	54 %	0 %
30 ball	30	26	25	22	21	17	16,5	0

Yakuniy nazorat 30 ball:

16,5-21=55-70 %;

21,3-25,5= 71-85 %;

26-30=86-100 %